



UDK: 947(575.1)

Dilfuza ABDULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilfuza_abdullayeva2020@mail.ru

Tarix f.f.d PhD, T.B.Xudoyqulov taqrizi asosida

MUZEY ISHLARI, QADIMGI YODGORLIKLAR HAMDA SAN'AT VA TABIAT MUHOFAZASI BO'YICHA BUXORO QO'MITASINING FAOLIYATI

Annotatsiya

Maqolada Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) ning tashkil etilishi va Buxoro me'moriy yodgorliklarini muhofaza qilish bilan bog'liq faoliyat yoritilgan. Tashkilotning vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlari, Buxorodagi tarixiy obidalarini ta'mirlash va tiklash bilan shug'ullanadigan xodimlar va ularning vazifalari xususida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxkomstaris, Zarafshon komissiyasi, I.I. Umnyakov, Sredazkomstaris, Muso Saidjonov, Yahyo G'ulomov, muhandis-arxitektor, Nodir Devonbegi madrasasi, hisobot hujjatlari, me'moriy yodgorliklar, O'zorasatqo'm, ta'mirlash.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО КОМИТЕТА ДЕЛАМ МУЗЕЕВ, ОХРАНЫ ПАМЯТНИКОВ СТАРИНЫ, ИСКУССТВА И ПРИРОДЫ

Аннотация

В статье освещается создание Бухарского комитета делам музеев, охраны памятников старины, искусства и природы (Бухкомстарис) и деятельность, связанная с охраной памятников архитектуры Бухары. Подробно рассмотрены полномочия и финансовые возможности организации, сотрудники, занимающиеся ремонтом и реставрацией исторических памятников в Бухаре и их задачи.

Ключевые слова: Бухкомстарис, Заравшанская комиссия, И.И.Умняков, Средазкомстарис, Муса Саиджанов, Яхья Гуломов, инженер-архитектор, медресе Нодир Девонбеги, отчетные документы, памятники архитектуры, Узкомстарис, ремонт.

ACTIVITIES OF THE BUKHARA COMMITTEE FOR MUSEUMS, PROTECTION OF ANCIENT MONUMENTS, ART AND NATURE

Annotation

The article highlights the creation of the Bukhara Committee for Museums, Protection of Antiquities, Art and Nature (Bukhkomstaris) and activities related to the protection of architectural monuments of Bukhara. The powers and financial capabilities of the organization, employees engaged in the repair and restoration of historical monuments in Bukhara and their tasks are considered in detail.

Key words: Bukhkomstaris, Zarafshan Commission, I.I.Umnyakov, Sredazkomstaris, Musa Saidzhanov, Yahya Gulomov, architectural engineer, Nodir Devonbegi madrasah, accounting documents, architectural monuments, Uzkomstaris, repair.

Kirish. Muзей ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) – Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash tarixida muhim ahamiyat kasb etgan muassasalardan biridir. Mazkur tashkilotning ta'xis etilishi uchun Buxoro hududidagi tarixiy yodgorliklarning ro'yxatga olinishi, ularning ahamiyati va saqlash mas'uliyati birlamchi asos sifatida xizmat qildi. Turkkomstaris topshirig'i asosida 1924-yilda I.I. Umnyakov tomonidan muhandis M.M. Loginov bilan birgalikda Buxoro va Karmana hududidagi amir saroylarining saqlanish holati o'rganiladi, ularning o'lchovlari olinib, fotofiksatsion va ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi[1]. Tashrif natijasida yodgorliklar muhofazasi bo'yicha Buxoro komissiyasi (hay'ati) tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muзей ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) faoliyatini o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxividagi Turkkomstaris va Sredazkomstaris–R-394-fondning 92, 93, 143, 188, 192, 261, 309-yig'ma jildlari, Uzkomstaris–2296-fond 1, 9, 174, 46, 62-yig'ma jildlarida hamda Buxoro viloyat davlat arxividagi 629-fondning 1, 836-fondning 5, 9, 17- yig'ma jildlarida Buxkomstaris faoliyatiga doir hisobotlar, ish yuritish hujjatlari jamlangan. Ushbu manbalarning tahlili, ularda Buxoro tarixiy

yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Muзей ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) faoliyati bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Tahlil va natijalar. I.I.Umnyakovning Buxoro komissiyasini tashkil etish masalasidagi fikrlarini Turkkomstarisning 1924-yil 12-oktyabrdagi yig'ilish bayonnomasidagi ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkoni mavjud. Muassasaning tashkil etilishi, xodimlar hamda tegishli mablag' manbalari bilan bog'liq masalalar tartibi unda o'z ifodasini topgan. M. Saidjonov bilan kelishilgan holda taklif etilgan tartib bandlariga muvofiq Komissiya BSSR (Buxoro sovet sotsialistik respublikasi) Maorif nozirligi huzurida tashkil etilib Turkkomstarisning hududiy vakilligi vazifasini bajarishi belgilangan. Shuningdek, unga a) Buxoro hududidagi tarixiy va san'at yodgorliklarini ro'yxatga olish; b) Buxkomstaris tasarrufiga kiritilgan tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash; c) tashkilot vazifalaridan kelib chiqib jamlangan barcha materiallarni tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilish; d) muзей ishini boshqarish singari majburiyat va mas'uliyat topshiriladi[2].

Turkkomstaris tomonidan 1924-yil 19-oktyabrda BSSR Maorif nozirligiga Buxoro komissiyasi nizom (tartib)ining tasdiqlanishi so'rab murojaat etiladi. Unda tashkilot yo'nalishi Turkkomstaris faoliyat geografiasining kengayishi sifatida ta'kidlanadi.

Xat so'ngida milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilgandan keyin tartib bandlariga o'zgartirish kiritilishi mumkinligi ham qayd etilgan. Shunday mazmundagi maktub 1924-yil 11-dekabrda O'zSSR Maorif xalq komissarligi nomiga ham yo'llanadi[3]. Undagi ma'lumotlar agar muassasa tartibi tasdiqlanmasa, unda Maorif nozirligi tomonidan mablag' ajratilmasligini ko'rsatadi. Mazkur holat muassasa faoliyatida siyosiy boshqaruv bosimi mavjudligining yaqqol dalilidir.

Ayrim tuzatishlar natijasida Buxkomstaris faoliyati xususidagi nizom qabul qilingan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini 1925-yilda "Sredazkomstarisning Zarafshon komissiyasi" nomi bilan boshlaydi. Bu milliy-hududiy chegaralanish siyosati sababli bosh qo'mitaning qayta tashkil etilishi bilan bog'liq edi. 1925-yil mart oyida qayta tuzilgan ushbu komissiya Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish, hisobga olish, saqlash va ta'mirlash uchun mas'ul etib belgilangan[4].

Jami o'n moddadan iborat komissiya nizomi tasdiqlanadi[5]. Mazkur ikkala nizom bandlari o'zaro taqqoslanganda ular deyarli farqlanmasligi aniqlandi. Bu Buxkomstaris faoliyati Sredazkomstaris (Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha O'rta Osiyo qo'mitasi) davrida yo'lga qo'yilganligiga qaramay, uning asosi Turkkomstaris bilan bog'liqligini anglatadi.

Zarafshon viloyat qo'mitasi nizomida komissiya raisi, rais muovini, viloyat muzeyi boshqaruvchisi, muhandis-arxitektori, ilmiy kotib, ish boshqaruvchi - hisobchi, kotiba kabi xodimlar faoliyat yuritishi belgilangan bo'lsa-da, keyinchalik tarixiy hududlarda ta'sis etila boshlangan komissiyalardagi shtatlar loyihasi bosh qo'mita raisi D.I.Nechkin tomonidan qayta ko'rib chiqilganligi kuzatiladi[6]. Buni 1925-yildagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Tashkilot xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzilib, unda majburiyat va vakolatlar aniq belgilangan. Jumladan, komissiya raisi a) tarixiy yodgorliklarga etkazilishi mumkin zarar yoki ilmiy ahamiyat kasb etadigan topilmalar xususida xabardor bo'lish; b) qo'mita tasarrufidagi erlar bilan bog'liq tadbirlarga nazoratni yo'lga qo'yish; s) Buxoro xududidagi idora va tashkilotlarda tegishli tarixiy yodgorliklar va ularning ahamiyati xususida ma'ruzalar o'qish va ekskursion tadbirlarni amalga oshirish; d) bosh qo'mitaga amalga oshirilgan ishlar xususida hisobot taqdim etish kabi vazifalarni bajargan.

Sredazkomstaris tayinlovi asosida Abdurauf Fitrat (1925-yil 1-mart-1926-yil 26-iyungacha), Muso Saidjonov (1926-yil 26-iyun-1927-yil 22-noyabr), Halim Ashurov (1927-yil 22-noyabr-1928-yil - sentyabr), Nadjab Qurbonov (1928-yil 4-sentyabr) kabi mahalliy ziyolilarning Buxkomstaris raisi lavozimidagi faoliyati e'tiborga molik[7].

Zarafshon komissiyasining to'liq tarkibi 1925-yil 1-oktyabrda quyidagicha shakllantiriladi: Rais sifatida Abdurauf Fitrat faoliyatini davom ettiradi, rais muovini etib V.K.Kostko (Sredazkomstarisning tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limi vakili - D.A.) tayinlangan. Ilmiy kotib M.YU.Saidjonov[8], ilmiy xodim lavozimida Said Mahmud Ma'sudxo'jaev ish boshlaydi. Shuningdek, hisobchi-ish boshqaruvchi, xo'jalik ishlari boshqaruvchisi, yordamchi, omborxon qorovuli, Ko'kaldosh madrasasi qorovuli, izvoshchi kabi jami o'n xodimdan iborat jamoa o'z faoliyatini boshlaydi[9].

Tahlillar, xodimlar tarkibining asosiy qismi mahalliy millat vakillaridan shakllantirilganligini ko'rsatdi. Bu tashkilot faoliyatining amalga oshirilishi uchun ijobiy hol edi. Yil oxiriga kelib Nodir Devonbegi madrasasi va Fathobod (Bayonqulixon va Sayfiddin Boxarziy maqbaralari)dagi yodgorliklar uchun qorovul tayinlanganligi hisobiga xodimlar soni ikkitaga ko'payganligini ko'ramiz. Yodgorliklar

muhofazasida ushbu ish o'rning ahamiyatli ekanligi qo'mita faoliyati davomida o'z tasdig'ini topdi. Dastlab, binoning xavfsizligi va uning tozaligiga mas'ul bo'lgan qorovullar vazifasiga tashrif buyuruvchilarni ro'yxatga olish hamda ob'ekt to'g'risida birlamchi ma'lumotlar berish ham kiritiladi[10]. O'z navbatida qorovullar asosan ta'mirchi ustalar orasidan tayinlanganligi e'tiborga molik. Nodir Devonbegi madrasasi va Ismoil Somoniy maqbarasi qorovullari bo'lgan Qurbon Saidov, Sulaymon To'raev kabi ta'mirchi-ustalarning faoliyati buning misolidir.

Buxkomstaris ma'muriyati Nodir Devonbegi madrasasida joylashgan. Tashkilotga yuborilgan turli jo'natma va maktublarda ham yuridik manzil sifatida "Eski Buxoro shahri. Devonbegi madrasasiga" degan yozuv qayd etilgan[11].

Mavzu doirasidagi hujjatlar tadqiqi asosida Buxkomstarisning iqtisodiy masalalari Zarafshon viloyat moliya bo'limi (ZEROBFO) tomonidan tasdiqlanib, uning ta'minotida asosan uchta moliyaviy manbalarga tayanilganligi ma'lum bo'ldi.

Davlat byudjeti nomuntazam xarakterga ega bo'lgan. Mablag' Sredazkomstaris tomonidan tuzilgan birlamchi hisoblash hujjat (smeta)lar asosida ajratiladi.

Vaqf mulklaridan tushumlar mablag'larning 10% miqdori ta'mirlash bilan bog'liq smeta hujjatlari taqdim etilgandan keyingina ajratilgan[12]. Bu turdagi ta'minot asosan kechiktirilib berilishi evaziga ham o'z vaqtda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarning qoldirilishiga sabab bo'lgan. Mazkur ta'minot turi 1929-yildan e'tiboran hududiy xo'jalik bo'limlari ixtiyoriga o'tishi sababli tegishli ajratmalar endilikda Buxoro okrugi ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Mablag'ning bu ikkala turi faqatgina qurilish- ta'mirlash ishlari uchun ajratilgan.

Maxsus mablag' tushumlari nisbatan muntazam ajratilib, Buxkomstarisning butun faoliyatini amalga oshirishning birdan-bir muqim manbasi edi. Maosh, shaxsiy tarkib chiqimlari, xodimlarni ilmiy safarga jo'natish kabi xarajatlar mazkur tushum hisobidan amalga oshiriladi[13].

Soha xodimi sifatida faoliyat yuritgan V.A. SHishkin o'z shaxsiy tajribasiga tayanib Buxkomstarisning moliyaviy holati to'g'risidagi bergan ma'lumot va takliflarida quyidagilar bayon etiladi. Unga ko'ra, tashkilot mablag'idagi tushum manbasi Ko'kaldosh, Nodir Devonbegi madrasalari, Sitorai Mohi Xossa saroyi kabi yodgorliklar hisobidan amalga oshirilayotganligi, 1927-1928-yilning besh yarim oyi davomida bino ijarasidan 6385 r 46 tiyin kelib tushgani, xarajatlar esa 7680 r 37 t. bo'lib qarzdorligi 1773.11 tiyinni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Shu o'rinda olim bu boradagi takliflarini ham keltirib o'tadi: "...Tashkilotga kelib tushadigan mablag'larning manbalarini kengaytirish darkor. Buning uchun bozorlarda Sredazkomstaris ixtiyoridagi rasta joylari xususidagi shartnomalarni tashkil etish kerak..."[14]. Bundan joylardagi komissiyalar o'z-o'zini ta'minlaydigan iqtisodiy tizimga o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosaga kelish o'rinli.

O'zbekiston SSR MIQ va XKSning 1932-yil 27-iyundagi qaroriga asosanib Uzkomstaris Xalq Maorif Komissarligi taassarrufidan olinadi. Tashkilot nomi O'z SSR Xalq Komissarlar Soveti huzuridagi O'zbekiston osori atiqalarini ilmiy tekshirish hamda saqlash qo'mitasi (O'zozoratqo'm)ga o'zgartiriladi[15]. Hududiy vakilliklarda esa o'zgarishlar kuzatilmaydi. Faqat mazkur yillarda Buxkomstaris hujjatlari Buxoro okrugi vakili emas Buxoro rayoni vakolatli vakili nomi bilan rasmiylashtirilgan[16].

Ushbu jarayon bilan bog'liq holda 1928-yildan e'tiboran Samarqandda faoliyat yuritgan Uzkomstaris markaziy boshqarmasini Buxoro shahriga ko'chirish masalasi muhokama qilinadi. Mazkur taklif Buxorodagi yodgorliklarning soni va ahamiyati jihatidan salmoqliligi yuzasidan ilgari surilgan. Ammo bir guruh omillar buning amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Boshqarmaning markaziy hukumat idoralardan

shuningdek, yodgorliklarni o'rganish va ularni ro'yxatga olish ishlari uchun Toshkentdagi asosiy arxivdan yiroqligi, qolaversa tadqiqot natijalariga qayta ishlov berish uchun kutubxonalaridan uszoqligi, ilmiy jamoatchilik va muhitning etishmasligi, O'z SSR Fan qo'mitasining nazorat qilishida qiyinchilik yuzaga kelishi kabi holatlar sabab qilib ko'rsatiladi.

Natijada, Uzkomstaris o'z faoliyatini 1932-yildan boshlab Toshkentda davom ettiradi. Tashkilot raisligiga Nizomiddin Xo'jaev, ilmiy kotib lavozimiga Yahyo G'ulomov tayinlanadi.

Aynan ushbu davrdan boshlab yodgorliklarni nafaqat ta'mirlash, balki ularni ilmiy jihatdan o'rganib, tadqiq etishga alohida e'tibor qaratiladi. 1936-yildan e'tiboran Buxkomstaris hisobot hujjatlarida "me'moriy yodgorliklarning o'rganilishi" bandining kiritilganligi ham buning yaqqol isbotidir. Ta'mirot yo'nalishida esa mazkur yilda Buxoro hududi bo'yicha 46 ta madaniy meros obyektlari muxofazaga olinganligi ma'lum[17].

O'zbekiston SSRning 1932-yil 27-iyun sanasidagi №62 sonli qaroriga binoan 1933-yildan boshlab, Uzkomstaris o'zining matbuot organiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritadi. Qo'mita o'zining hududiy bo'limlari qatorida Buxkomstarisga ham ushbu nashrdan o'z ilmiy izlanish natijalarini e'lon qilib borish taklifini yo'llaydi.

Mazkur xat mazmunidan nashr faoliyatining asosiy vazifasi ilmiy tadqiqotlarni keng ommaga taqdim qilish, shuningdek, Uzkomstaris faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilganligi anglashiladi. E'tiborga molik jihati shundaki, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz shaharlaridagi bo'limlarning ilmiy nashrlari maxsus O'zSSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi tomonidan moliyalashtirilib, qattiq senzura o'rnatilgan. Bu ilmiy faoliyat natijalari Uzkomstarisning ruxsatisiz chop etishga yo'l qo'yilmaganligini anglatadi[18].

Uzkomstaris barcha bo'limlariga 1933-yil 10-mayda xat bilan murojaat qilib, mamlakat hududida mavjud tarixiy yodgorliklarning ro'yxati va ular bilan bog'liq ma'lumotlar, jumladan, anketa (so'rovnom) to'ldirilishi zaruratini bayon etgan[19]. Tashkilot muhri va ilmiy kotib YA.G'ulomov imzosi bilan tasdiqlangan 17 bandli anketa ko'rinish-qolipida yurtimiz hududidagi barcha "ahamiyatli" deb topilgan yodgorliklar ro'yxatga olinib, raqamlab chiqilgan.

Shu bilan birga, 1934-yil 16-mayda Buxoro hududida yodgorliklarning tashkilot ro'yxatiga kiritilganligini bildiruvchi taxtachalar tayyorlash va ularni yodgorliklar yaqinida qo'yishni so'rab qilingan murojaat ham mavjud.

Buxkomstaris faoliyati Uzkomstarisning har yil uchun mo'ljallab tuzilgan 1.Tashkiliy masalalar 2.Moddiy madaniyat yodgorliklaridan foydalanish 3. Yodgorliklar muhofazasi 4. Ta'mirlash va qayta tiklash ishlari kabi qismlardan iborat ishlar rejasida belgilab berilgan[20].

Yil yakunida Buxkomstaris tomonidan taqdim etilgan hisobotlarning yana bir jihati, ular kelgusi yildagi ishlar ko'lami va ajratma mablag'lar taqsimoti qayd etilganligidir. Jumladan, Buxkomstaris 1933-yilgi hisobotida kelgusi (1934-A.D) yil uchun bir guruh ishlarni tashkil etish rejalashtirgan. Unga binoan Mirzo Ulug'bek madrasasi, Sitorai Mohi Xossa saroyi va O'g'lon darvozasidagi ta'mirlash rejalari ishlab chiqilgan[21].

Buxkomstarisning har yilgi faoliyat hisobotlariga ilova tarzida "tushuntirish- hisobot xatlari" ham biriktirilgan. U 1) iqtisodiy taqsimot hisoboti 2) debitlar ro'yxati 3) maxsus mablag' tushumlari hisoboti 4) ta'mir-restavratsiya ishlari kabi bandlardan iborat edi. Har bir hisobot xatlari ta'mirlash ishlarining yo'nalishiga mos ravishda yuritilganligi ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, birinchidan, bo'limlar o'rtasidagi barcha yozishmalar Uzkomstaris tomonidan nazorat qilib borilgan, ikkinchidan, xatda ko'rsatilganidek, yillik hisobot shartlari bir xil shaklda bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Buxkomstarisning kadrlar siyosatida xodimlar asosan mahalliy millat vakillaridan tayinlanganligi e'tiborga molik. Ularga yuklatilgan vazifa hamda vakolatlar mehnat shartnomasi va taqdim etilgan ishonchnoma hujjatlari orqali mustahkamlangan. Shuningdek, tashkilot faoliyati davlat byudjeti hamda vaqf mulklaridan keladigan tushumlar, qolaversa, maxsus mablag'lar kabi moliyaviy manbalar asosida tashkil etilgan.

O'zbekiston Milliy arxivi jamg'armalaridagi mavjud ma'lumotlar XX asr 30-yillarida Buxkomstaris faoliyati nafaqat me'moriy obidalarini ta'mirlash, balki ularni ilmiy jihatdan o'rganib, tadqiq etishga ham yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Tashkilot xodimlari o'z ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiy va ilmiy nashrlarda chop etib borishi ham buni tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda - O'zMA), R-394-fond, 1-ro'yxat, 143-yig'ma jild, 114-115-varaqlar.
2. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 92-yig'ma jild, 1-varaq.
3. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 93-yig'ma jild, 4-varaq.
4. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 188-yig'ma jild, 9-varaq.
5. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 192-yig'ma jild, 2-3-varaq.
6. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 21-varaq.
7. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'ma jild, 23-varaq.
8. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 192-yig'ma jild, 131-varaq.
9. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'ma jild, 22-varaq.
10. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 104-varaq.
11. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 309-yig'ma jild, 21-varaq.
12. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 309-yig'ma jild, 21-varaq.
13. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'ma jild, 23-varaq.
14. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'ma jild, 118-varaq.
15. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 46-yig'ma jild, 12-varaq.
16. Buxoro viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda - Buxoro VDA). 836-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 4-varaq.
17. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 62-yig'ma jild, 18-varaq.
18. Buxoro VDA, 836-fond, 1-ro'yxat, 17-yig'ma jild, 336-varaq.
19. Buxoro VDA, 836-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 6-8 varaqlar.
20. Buxoro VDA, 836-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'ma jild, 1-varaq.
21. Buxoro VDA. 836-fond, 1-ro'yxat, 17-yig'ma jild, 17-varaq.



Faxriya ABDURASULOVA,
O'zMU magistranti
E-mail: faxriyabahtiyorovna@gmail.com

T.f.n., dots. Xoliqulov A.B taqrizi asosida

COURT AND JUDICIAL CASES IN THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF BUKHARA EMIRATE

Annotation

In studying the history of the statehood of the Bukhara Emirate, it is important to study in detail its judicial system, process, and issues related to crime and punishment. In the article brought to your attention, the important aspects of court and sharia rulings in Bukhara Emirate are highlighted. This article highlights the importance of the role of the court in the state system in the study of the history of the statehood of the Emirate of Bukhara, including the period of Mangit rule in Bukhara from 1756 to 1920. It includes the role of the judiciary in the emirate, the socio-economic reforms of the rulers in the life of the emirate, and the role of religion and sharia rules in the life of society.

Key words: Judicial system, qazikalon, chairman, sharia rules, taxes, fatwa, mufti, religious scholars.

СУДЕБНЫЕ ДЕЛА В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

При изучении истории государственности Бухарского эмирата важно детально изучить его судебную систему, процесс, вопросы, связанные с преступлением и наказанием. В предлагаемой вашему вниманию статье освещены важные аспекты судебных и шариатских решений в Бухарском эмирате. В данной статье освещается значение роли суда в государственном устройстве при изучении истории государственности Бухарского эмирата, в том числе периода правления мангытов в Бухаре с 1756 по 1920 годы. Он включает в себя роль судебной власти в эмирате, социально-экономические реформы правителей в жизни эмирата, роль религии и норм шариата в жизни общества.

Ключевые слова: Судебная система, казикалон, председатель, шариат, налоги, фетва, муфтий, религиоведы.

BUXORO AMIRLIGI IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTIDA SUD VA QOZILIK ISHLARI

Annotatsiya

Buxoro amirligining davlatchilik tarixini o'rganishda uning sud tizimi, jarayoni hamda jinoyat va jazoga oid masalalarni batafsil o'rganish muhim ahamiyatga ega. E'tiboringizga havola etilayotgan maqolada Buxoro amirligida sud va shariat ahkomlarining ahamiyatli jihatlarini yoritilgan. Mazkur maqola Buxoroda mang'itlar hukmronligi 1756-1920-yillarni o'z ichiga olib, Buxoro amirligi davlatchilik tarixini o'rganishda davlat tizimida sudning o'rningi dolzarbligini yoritilgan. Amirlikda sud hokimiyatining o'rni, hukmdorlarning amirlik hayotidagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlari va din, shariat ahkomlarining jamiyat hayotidagi o'rni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Sud tizimi, qozikalon, rais, shariat ahkomlari, soliqlar, fatvo, muftiy, diniy ulamolar.

Kirish. Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida, ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy yo'alishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixini o'rganish, davlat arboblarning hamda muttafakkirlarimizning boy ilmiy-ijodiy hayotini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga mustaqilligimiz yillarida katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mustaqillikning yillarida mamlakatimiz bosib o'tgan o'z taraqqiyot yo'lining tub tahlili, hozirgi kunda sud hokimiyatining mustaqilligini rivojlantirish borasidagi islohotlar, jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, bormoqda. Sud hokimiyatining chin mustaqilligini ta'minlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichni boshlanishini hayotiy zaruratga aylantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yilning 21-oktyabrida qabul qilingan PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1] gi Sudyalarning tom ma'noda mustaqilligi va ular faqatgina qonunga bo'ysunishiga oid huquqiy normalarni amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga zamin yaratdi. Qolaversa, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida sudyalarning chinakam mustaqilligini

ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutildi. Yurtimizdagi sud tizimidagi amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va odil sudning siyosatda benihoya kattaligi siyosatimizda o'z aksini topib kelmoqda. Birinchi prezidenti-miz aytganlariday, "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"[2].

Shu jihatdan olganda, milliy davlatchiligimiz silsilasida alohida o'rin tutadigan Buxoro amirligi davrini xolisona va obyektiv tarzda o'rganish borasida ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda[3]. Buxoro xonligidagi mang'itlar sulolasi (1747-1920) davriga oid ilk tarixnavislik asarlarida islom olamining markazi hisoblangan mintaqada hukmronlikni qonuniylashtirishning turli imkoniyatlari va strategiyalari haqida keng ma'lumot berilgan[4]. Anke fon Kyugelgen « Легмитация среднеазиатское династии мангытов произведений их историков (XVIII-XIX) asarida aynan 1747-yildan 1826-yilgacha bo'lgan davr oraliqini olgan. Chunki aynan mana shu davrlar oraliqida yangi bir sulolaning hokimiyat tepasiga kelganligini va uning mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin deydi. Qolaversa aynan birinchi to'rt hukmdorlarning ijtimoiy siyosati va diniy qarashlari maxsus o'rganilishini talab qiladi. Mang'itlar sulolasi davrida Buxoroda din nomoyondalarini ziyoli qatlamlar tashkil qilardi. Bular ilohiyot olimlari, huquqshunoslar, madrasa va maktablarning o'qituvchilari, musulmon fiqhi

bo'yicha mutaxassislar, aholining diniy va ma'naviy ustozlari masjid va madrasa vakillari hisoblangan. Ular ma'rifatli edilar o'z jamiyatining odamlari, ularning barchasi zamonaviy til bilan aytganda, oliy musulmon ma'lumotiga ega bo'lib ma'naviy-axloqiy tamoyillari posbonlari, tarbiyachilari edilar. Islom dinining axloqiy tamoyillari asosida yosh avlodni tarbiyalagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixnavis siyosatdan olimlardan biri, mang'itlar sulolasi bukmronligi davrida yashab ijod etgan Muhammad Vafo Karminganiydir. U xalq orasida "Qozi Vafo" nomi bilan mashhur bo'lib, qozilik lavozimiga yangi sulola-mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon zamonida erishgan[5]. "Tuhfat ul-xoniy" (Xonning tuhfasi) asarining muallifi ham hisoblanadi. Sadridin Ayniy Shohmurodni legitim hukmdor sifatida tan oladi va uni mang'itlar sulolasining asoschisi deb e'tirof etadi[6]. Amir Shohmurodning har tomonlama zukkoligi, davlatni oqilona idora etishi, qonun ustuvorligini ta'minlaganligi ularga itoat etishi, hamda ilm-ma'rifat tarafdori kabi xislatlarini inobatga olib tarixchilar unga ilm-u ma'rifat tarafdori deya ta'rif bergan. Shohmurod davlat arbobi sifatida shakillanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu haqda ayniqsa, uning shayx Safarning muridi ekanligi muhim ahamiyat kasb etgan. U ilm ahlini hurmatlab ularning ta'limotini yo'lga qo'ygan. Lekin tasavvuf uning qahri qattiq hukmdor amir Shohmurod bo'lib yetishishiga, Mang'itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash borasida bir qancha islohotlarni amalga oshirishga hech qanday to'sqinlik qilmaydi. Garchi ruhoniylar Mang'itlarning birinchi hukmdorlaridan Donyolbiy otaliqning 11 nafar farzandlari ichidan eng katta farzand bo'lgan Ma'sumni hokimiyatdan chetlatishni maslahat bergan bo'lsalarda, u Buxoro taxtiga voris etib tayinlanadi va otasi vafotidan keyin 1785-yilda Buxoro amiri sifatida taxtga o'tiradi[7]. Shohmurod islohotlarining ba'zilarini uning topshirig'iga binoan 1789-yilda Mirzo Bodi Devon tomonidan "Majam al-arqam" (Raqamlar va rukumlar) haqidagi asrida keltirilgan. Unda yozilishicha Shohmurodning davlatni markazlashtirish, yerlarni ro'yxatga olish, soliq solish, uni undirishni tartibga keltirish hamda sug'orish inshootlarini, shaharlarni tiklash borasidagi ishlar u o'tkazgan moliya, sud, harbiy, ma'muriy islohotlarda, davlat xizmatini, ish yuritishni tartibga solishga qaratilgan choralarda ham o'z aksini topgan. Uning islohotlar ichida davlat boshlig'ining unvoni o'zgartirilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shohmurod turkiy xalqlarda udum bo'lib kelgan xonlik unvonidan voz kechib, amirlik unvonini oladi, ushbu yangilik Buxoroning islom davlati, uning hukmdori esa musulmonlar amiri ekanligiga hamda otasi Donyolbiy xon emas, otaliq mansabida bo'lganligiga ishora edi. Shohmurod-biy joriy etgan bu unvonni so'nggi Mang'it hukmdorlari 1920-yilgacha qo'llab keldilar[8]. Ahmad Donish amir Shohmurod haqida "Amirlik gilamini kambag'allik kiyimi bilan bezadi, jahon bog'idan dushmanlik va yomonlik kiyimini sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tqazdi", deb uning faoliyatiga yuksak baho bergan edi. Shohmurodning o'ta so'fiyig'i uni qahrli, qattiqqo'l hukmdor bo'lishiga, mang'itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun birqancha islohotlarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilmadi. Uning tomonidan o'tkazilgan harbiy, ma'muriy, moliyaviy islohotlar ko'p o'tmay o'z ijobiy natijasini berdi va mamlakat iqtisodiyotining o'nglanishiga xizmat qildi. Xarob holga kelgan madrasa hujralarining talabalarga xususiy qilib berilishi va ta'mirlash xarajatlarini ular zimmasiga yuklatilishi bilan madrasalar ikki yilda nochor ahvoldan chiqib oldi. Shohmurod 1800-yil 63 yoshida vafot etdi[9]. Islom dinining axloqiy tamoyillari asosida yosh avlodni tarbiyalagan. Shohmurod davlat arbobi sifatida shakillanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu haqda ayniqsa, uning shayx Safarning muridi ekanligi muhim ahamiyat kasb etgan.

U ilm ahlini hurmatlab ularning ta'limotini yo'lga qo'ygan. Tarixiy qo'lyozmalarining guvohlik berishicha, Amir Shohmurod ilohiyotshunos va olim bo'lgan. U musulmon olamining ko'plab muqaddas kitoblarini o'rgangan, va o'sha davrning uch mashhur Qur'on qorilari Hofiz Ashuro, Qori Nadra Bakiy va niyozqulidan Qur'on tilovat qilish bilimlarini egallagan[10]. Amir Shohmurod sud tizimiga oida bir qancha asarlar yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixnavis Miriyning ma'umot berishicha, u hanafiy mazhabining barcha fatvolarini to'plagan va ular ichidan saralab olgan ularning barchasini "Fatavi-yi axl-i Buxoro" va "Ayn ul-Hikma"[11] nomli kitobida to'plagan. Anke fon Kyugelning qayd etishicha "bu tugallanmagan asar huquq sohasiga oida ma'lumotlar jamlanmasidir qolaversa diniy marosimlar va fatvo haqidagi to'plam jamlanmasidan iboratdir" deydi[12]. Tarixnavis siyosatdon olimlardan biri, mang'itlar sulolasi bukmronligi davrida yashab ijod qilgan Muhammad Vafo Karminganiydir. U xalq orasida "Qozi Vafo" nomi bilan mashhur bo'lib, qozilik lavozimiga yangi sulola-mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon zamonida erishgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Muhammad Vafo Karminganiy Buxoro xonligida Muhammad Rahimbiyning saroy tarixchisi ham bo'gan. Muhammad Vafo Karminganiy tomonidan "Tuhft ul-xoniy" (Xonning tuhfasi) nomli siyosiy-tarixiy asar yozib qoldirgan[13]. Uning nodir asari o'lkamiz tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Uning noyob asari ЎзР ФАИИИ qo'lyozmalar fondida 5359-son qayd raqami bilan saqlanayapti[14]. Amir Shohmurod davri soliqlardan ezilgan xalqning harakati kuchaygan vaqtga taxtga to'g'ri kelganligi uchun ham birinchi islohotni soliqlarni tartibga solishdan boshladi. Butun Buxoro shahri aholisiga tarxon yorlig'i berib, oldingi hukmdorlar joriy qilgan, shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq kabi bir qancha soliqlarni bekor qilishga erishdi.

Tahlil va natijalar. Amir Shohmurod qilgan islohotlarining ichida ayniqsa, sud islohotlari amirlikda sud faoliyati bilan bog'liq nohaqliklarga barham berilishiga, qozilar tomonidan muayyan darajada adolatga erishish, insonparvarlik g'iyalariga qisman bo'lsada erishilganlikni ko'rinishimiz mumkin. Bu islohotga ko'ra har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va g'ayriqonuniy ish qilayotgan o'z xo'jaynini javobgarlikka tortishga haqli edi. Bunday siyosat o'sha davrdagi Buxoro amirligidagina emas, butun Turkiston davlatlarida sudlovni ijobiylashtirish uchun tashlangan katta qadam bo'ldi. Ushbu sud-huquq islohotlarining yana bir muhim jihati qozining hukmidan norozi bo'lgan tomonning qozi-ulquzzotga yoki amirga shikoyat qilishi huquqini qo'lga kiritganligida ko'rinadi. Buxoro amirligidagi sud ishlarining alohida e'tiborga molik jihati shunda ediki qozilar har bir tushgan arzlarni muayyan pul evaziga ko'rib chiqqanlar. Odatda qozilar sud majlislarini masjidlarda olib borsalarda, ko'p hollarda ularga o'z uylarida ishlarni ko'rib chiqib, tahlil qilish va muzokaralar olib borish yo'lga qo'yilgan. Nizolar ko'p jihatdan suv taqsimotidagi kamchiliklar, soliqlar, bojlar va boshqa turli xil to'lovlarni undirish kabi masalalardan kelib chiqqan. O'z navbatida, qozikalonga yoki amir nomiga yozilgan shikoyat-noma o'rganib chiqilib, qozining hukmini asosli ravishda qozi-ul quzzot bekor qilishi hamda uning qarorini faqat amir bekor qilishi mumkin bo'lgan[15]. Bundan tashqari, qiriq o'lamdan (qonunshunoslardan) iborat oliy sud (qozixon) palatasi tuziladi. Uning a'zolar shariat huquqi asosida Shohmurodning o'zi tuzib bergan to'plamni qo'llariga olib, arz va shikoyatlarni hal etishda unga qarab ish ko'radigan bo'ladilar[16]. Oliy qozixonalarda ish ko'rilayotganda amirning o'zi bosh bo'lib turgan. Shu boisdan mazkur tashkilotni amirning oliy sudi deb atash mumkin edi. Qolaversa, sudda ish

ko'riyotganda da'vogarining shaxsan o'zi ishtirok etishi talab qilingan. Tumanlar va kattaroq qishloqlarga (kasabalarga) qozilar tayinlash ham u kiritgan yangiliklardan bo'ldi. Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: Qasaba, tuman, viloyat qozilari, bosh qozi hamda qirg'alam sudi joriy qilindi, eng oliy qozi amirning o'zi hisoblanar edi. Shariat huquqi asosida Shohmurod tuzgan qoidalar to'plami tahsinga sazovordir, uni jamiyat hayotiga tatbiq etish va qo'llash xalqning turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarixchi olimlarimizning oldidagi vazifalardan biri tariximizni chuqurroq o'rganib xalqimizga yetkazishdan iboratdir. Chunki yurtimizda hukm surgan sulolardan chiqqan davlat boshliqlari qo'li bilan tuzilgan qoidalar to'plamlarini juda kam uchratamiz. Buxoro islom dunyosida alohida o'rin tutgani sababli, shariat qonunlarini himoya qiluvchi Qozikalon lavozimi ham asosiy o'rinda turgan. U Islom peshvolarining va islom qonunchiligining boshlig'i bo'lib eng og'ir jinoyatlar hamda muhim fuqarolik ishlari bilan shug'ullangan. Qozikalon qoshida Muftiylar devoni faoliyat ko'rsatgan ularning soni 12 kishidan iborat bo'lgan. Rais vazifasi ham eng katta lavozimlardan biri bo'lib asosan Saidlardan va Payg'ambar avlodidan bo'lgan shaxslar bu lavozimga tayinlangan[17]. Uning asosiy vazifasi tosh tarozu va uzunlik

o'lchovlari qonun qoidalarni buzganlarni jazolashdan iborat. Rais vazifasi ham eng katta lavozimlardan biri bo'lib asosan Saidlardan va Payg'ambar avlodidan bo'lgan shaxslar bu lavozimga tayinlangan[17]. Uning asosiy vazifasi tosh tarozu va uzunlik o'lchovlari qonun qoidalarni buzganlarni jazolashdan iborat bo'lgan.

Shu o'rinda yana alohida ta'kidlashimiz kerakki, Amir Shohmurodning sud islohotlari, ayniqsa, katta ahamiyatga molik ekanligini aytib o'tish lozim [18]. Sud chiqargan hukmlarning amalda tezda joriy qilinishi eng ma'qul sifatlari deya e'tirof etilgan. O'g'rilik va yoki shunga o'xshash boshqa bir jinoyat isharni amalga oshirgan maxbuslar baland minoradan uloqtirilgan hattoki zindonga yoki kanaxonalarga tashlash kabi hukmlar ham qo'llab turilgan[19].

Xulosa va takliflar. Buxoro amirligi mang'it sulolalari hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib ayniqsa, Amir Shohmurod faoliyati davrida davlatchilikning tarqoqqiy etib shakillanishi va yuksalganligini guvohi bo'ldik. Davlat hokimiyatini tashkil etish, sud hokimiyatini shakillantirish borasida tarix o'tmishimizga nazar solib uni chuqur tahlil etgan holda bugungi kunda zamon talablarini, jahon tajribasining ilg'or tomonlarini o'zida jamlagan mustaqil sud hokimiyatini barpo etish biz yosh tarixchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Prezident.uz sayti (President.uz website).
2. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура Т.1.-Т.: «Ўзбекистон». 1996. -Б11.
3. Boboyev N., Hidirov Z., O'zbek davlatchiligi tarixi (II kitob) -T,: " Fan va texnologiya" 2009.- 186-bet.
4. Анке фон Кюгельген " Легмитация среднеазиатскоц династии мангитов произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) Алматы: Издательство «Дайк-Пресс»: 2004.-331с. Бухарское ханство или Бухарский эмират охватывал в основном Трансокс-санию (Ма вара' ан-нахр), иногда и северные районы Хорасана (Хурасан), т. е. центральный регион сегодняшнего Узбекистана и обширные части Таджикистана, а также, временно, южные районы Туркменистана и северный пояс Афганистана. «Исламский» и «мусульманский» в настоящем исследовании используются в одном и том же значении.
5. Boboyev N., Hidirov Z., O'zbek davlatchiligi tarixi (II kitob) -T,: " Fan va texnologiya". 2009. - 180-bet.
6. Boboyev N., Hidirov Z., O'zbek davlatchiligi tarixi (II kitob) -T,: " Fan va texnologiya". 2009.- 187-bet.
7. Амир Шоҳмурод ҳақида қаранг : Муқимов З. Қилич ва қалам соҳиблари (Давлат арбоблари ҳақида лавҳалар) . 1997.
8. Муқимов Зиёдулла « Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи» Тошкент "Адолат"2003. - 206-бет.
9. То'раев Halim "Вухоро тарихи" О'quv qo'llanma "Durdon" nashriyoti 2022-yil 185-bet.
10. Анке фон Кюгельген " Легмитация среднеазиатскоц династии мангитов произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) Алматы: Издательство «Дайк-Пресс»: 2004. - стр 332.
11. Мири (Мир Хусайн ибн Шахмурад). Махазин ат-таква. Рукопись. ИВАНРУз. № 51.Л. 204 б – 206 а.
12. Анке фон Кюгельген " Легмитация среднеазиатскоц династии мангитов произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) Алматы: Издательство «Дайк-Пресс»: 2004. - 333с.
13. Boboyev N., Hidirov Z., O'zbek davlatchiligi tarixi (II kitob) -T,: " Fan va texnologiya". 2009. - 180 -bet.
14. Ҳайтова Олмадон Қурбонов Хуршид Кармана тарихи Тошкент « MASHHUR-PRESS». 2008.- 67-бет.
15. Boboyev N., Hidirov Z., O'zbek davlatchiligi tarixi (II kitob) -T, : " Fan va texnologiya". 2009.- 205 -bet.
16. Муқимов Зиёдулла « Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи» Тошкент « Адолат». 2003.- 210-бет.
17. Ҳотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. С-26.
18. Муқимов Зиёдулла « Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи» Тошкент « Адолат»2003. - 208-бет.
19. Barakayev J. Haydarov Y. Buxoro tarixi (eng qadimgi davrlardan ulug' oktabr inqilobigacha). T.:O'qituvchi,1991.



UDK: 903'14:94(7)

Asxat BIYKUZIIYEV,
O'zbekiston Milliy Universiteti t.f.f.d.(PhD)
E-mail: biy82@list.ru

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi t.f.n. dots. T. Xatamov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI CHORVADOR XALQLARI TARIXIDA QANG' DAVLATINING IJTIMOY-IQTISODIY O'RNI

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyoda antik davrda yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi o'z aksini topgan. Nomadlar dunyosida yashash shart-sharoiti qadimgi Xitoy, yunon yozma manbalari va arxeologik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shu bilan birga Qang' davlatining iqtisodiy tarraqiyoti tarixi borasida yangi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nomad, Karbus, Koyon-Tokoy, Qovunchi, O'tror-Qoratou, Jetisar madaniyati, Yaksart, Oks, Sug'd, Choch, Yansay, Kultobe, Tumsik, Aktobe, Tasmalin.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ РОЛЬ КАНГЮЙСКОГО ГОСУДАРСТВА В ИСТОРИИ КОЧЕВЫХ СКОТОВОДЧЕСКИХ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В статье отражена история социально-экономического уклада жизни кочевых скотоводческих племен, обитавших в эпоху античности в Центральной Азии. Освещаются условия жизни в мире кочевников на основе древнекитайских, греческих письменных источников и археологических данных. В то же время были приведены новые данные об истории экономического развития Кангюйского государства.

Ключевые слова: Номад, Карбус, Коён-Токой, Ковунчи, Отрар-Коратоу, Джетыясарская культура, Яксарт, Окс, Согд, Чоч, Яньцай, Культобе, Тумсик, Актобе, Тасмалин.

THE SOCIO-ECONOMIC ROLE OF THE KANGYU STATE IN THE HISTORY OF NOMADIC PASTORAL PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Annotation

The article reflects the history of the socio-economic way of life of nomadic pastoral tribes that lived in the antiquity era in Central Asia. The conditions of life in the world of nomads are highlighted on the basis of ancient Chinese, Greek written sources and archaeological data. At the same time, new data on the history of the Kangyu State's economic development was provided.

Key words: Nomad, Karbus, Cohen-Tokoi, Covunchi, Otrar-Koratou, Jetisar culture, Yakart, Oks, Sogd, Chach, Yansay, Kultobe, Tumsik, Aktobe, Tasmalin.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda ulkan islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Natijada tarixiy ildizlarni o'tmishga borib taqaladigan ijtimoiy-iqtisodiy muommolar o'z yechimini topayotgan bir paytda mamlakatimizning antik davrdagi tarixiga ham qiziqish ortib bormoqda. Markaziy Osiyo aholisining, asosiy qismini tashkil qiluvchi o'zbeklarning etnik shakllanishi uzqoq tarixiy jarayonni qamrab olgan. O'zbeklarning etnik shakllanishiga qadimdan boshlanishi va ularning ajdodlari mahalliy o'troq va ko'chmanchi qabilardan kelib chiqishi tarixiy jihatdan ko'zga tashlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimdan sak qabilalari Sirdaryoning bo'ylarida va unga tutash manzillarda yashab kelishgan. Qang' davriga oid manzilgohlarni o'rganish 1887-va 1893-yillari N.P. Ostroumov, A.M.Fetisov va G. Geykellar tomonidan amalga oshirilgan[1]. Xususan, G.Geykel tomonidan Karbus, Koyon-Tokoy, Djoon-Tobe, Chik-Tie va boshqa qabr qo'rg'onlari topib o'rganila boshlagan[2]. Saklar qabilaviy ittifoqqa birlashish davri yangi ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv. IX-VIII asrlarga borib taqalishi o'z isbotini topgan[3]. Qadimgi saklar orasida mulkiy tabaqalanish jarayoni mil.avv. VII-VI asrlarda kuchaya boshlagan. Bu haqda Tasmalin madaniyati guvohlik beradi[4]. Harbiy san'atda sak suvoriylarini o'z davri uchun mukammal darajada qurolangan edilar. Ma'lumki, mil.avv. VI ardan boshlab ular qabilaviy ittifoqlar tuzib, boshqa elatlardan o'z chegaralarini himoya qilishar edi. Ushbu qabilalarning ijtimoiy tarkibi asosan patriarxal urug'chilik urf-odat qonunlariga muvofiq shakllanib borgan. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yilqichilik muhim ahamiyatga ega edi. Bu soha O'rta Osiyo

mintaqasida bronza davridan buyon rivojlanib kelgan[5]. Ikki daryo oralig'i aholisi mil.avv. III-II asrlarda dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Ayniqsa, bu borada kulolchilik sohasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sirdaryoning o'rta oqimida tarqalgan kulolchilik madaniyati Ikki daryo oralig'i areali bo'ylab kengayib borgan. Demak sak qabilalari hunarmandchilikning bu turini yaxshi o'zlashtiribgina qolmay, uni o'troq dehqonchilik hududlari (Sug'd va Baqtriya)ga ham tarqata olganlar[6]. Saklar jamiyatida metalurgiyani rivojlanishi asosan ma'danga boy tog'li hududlarda (ya'ni Tan-shan atroflari) keng tarqalgan. Bronzadan buyumlar quyish va unga ishlov berish Farg'ona vodiysida ham mavjud edi. Bu yerda saklarning "xaomavarka" deb nomlangan o'troq aholisi yashar edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Katta Farg'ona kanalini qazish chog'ida bu yerdan saklar davriga oid uch oyoqli bronza qozon va sak xanjarlari topilgan edi[7]. Bu turdagi ashyolar Yettisuv hududlaridagi arxeologik topilmalarga madaniy jihatdan yaqinligi, saklarning ta'sir doirasi qanchalik keng bo'lganligidan dalolat beradi. Arxeologlarning ta'kidlashicha, qang'liklar yashagan yerlar Qovunchi, O'tror-Qoratou va Jetisar madaniyatlarini hududiga to'g'ri keladi[8]. Dastlab sak qabilalari orasidagi farq faqatgina ularning hayot tarzi (o'troq dehqon yoki chorvador) bilan ajralib turgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy, tarixiy va germanevtik tahlil usullari asosida antik davrda Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlar tarixi tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda saklarning aksariyati ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullangan bo'lsa, ayrim qabilalari o'troq dehqonchilik qilishgan. Ammo saklarning bir qismi mil.avv. IV asrda o'troqlashib bo'lgan. Pomir va Farg'ona saklari, Choch saklaridan farqli o'laroq shaharsozlikda nisbatan ustunlik qilishgan. Qadimgi Xitoy manbalarida mil.avv. II asrda Davan (Day-yuan)da[9] 70 ga yaqin shaharlar bo'lganligi ta'kidlanadi[10]. Nufuzi esa Qang' aholisining nisbatan ikki barobar kam (300 mingga yaqin)[11] va Qang' poytaxti Bityan (Qanqa)dan 1510 li uzoqlikda joylashganligi ta'kidlanadi. Antik davr xitoy manbalarida qang'liklar, sug'diylar, davanliklar, shuningdek, kushonlar nazorati ostida bo'lgan Baqtriya aholining tili bir-biriga yaqinligi aytiladi[12]. Demak, qang'liklar sak tilida so'zlashib, bu til sug'diy va davanliklar tilidan faqatgina shevalari bilan farq qilgan[13]. Arxeolog K.Baypakovning fikricha, dastlab saklar va qang'liklarni tili shimoliy eron xalqlari tiliga oid deb ta'kidlaydi[14]. A.N. Bernshtamning fikriga ko'ra, bu aholi orasida milodiy I asrdan prototurk tilining ta'siri oshgan[15].

Qang' davlatida hunarmandchilikning kulolchilik sohasi ham alohida o'rin egallagan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, keramikaga ishlov berish texnikasi Qang' davlati yuzaga kelishidan avval (mil.avv. IV asr) paydo bo'lib, milodiy IV asrda ham unchalik o'zgarmagan[16]. Saklarning ayrim qatlamlari shaharlarda va shaharchalarda istiqomat qilib, savdo-sotiq bilan ham shug'ullanishgan. Qang'lik zodagonlar esa alohida qo'rg'onlarda istiqomat qilishgan. Masalan: Tarozdan 40 km sharqda joylashgan qal'a shaklidagi Akirtas saroyi bunga misol bo'la oladi. Akirtas qo'rg'on shaklidagi saroyning xronologik davri mil avv. IV-II asrlarga oid bo'lib, qadimda ushbu qo'rg'on atrofidan tog' irmoqlari to'lib oqib o'tgan[17]. Bu qo'rg'on ilk o'rta asrlarda kengaytirilgan. Atrofida serunum tuproq va buloqlar qo'p bo'lgan. Bu yerda chorvachilik va mavsumiy dehqonchilik bilan ham shug'ullanish imkoni mavjud edi.

Dasht va tog' oldi hududlarida yashagan qang'liklarning o'troqlashishdan avvalgi hayot tarzleri ko'chmanchi yuechjilar va xunnlarnikidan deyarli farq qilmagan. Qadimgi xitoy tarixchisi Sima syan o'zining "Shiszi" asarida ko'chmanchi chorvadorlarni hayot tarzini qisqacha ta'riflab berishga uringan: "Uy hayvonlaridan asosan otlar, yirik shoxli qora mol va mayda tuyoqli chorvalari boro'g'il bolalar qo'ylarni minib yurishni bilishadi, kamondan qushlar va sichqonlarga o'q uzishadi. Yoshi kattaroqlari tulki va quyonlarni otishib, ularni ovqatda iste'mol qilishadi; Kamon torta oladigan erkaklari o'qchi otliq navkar bo'lishadi. Tinchlik vaqti esa chorvasi ortidan yurib, qushlar va hayvonlarni ovlab, shu tariqa hayot kechiradi. Notinchlik vaqtida hujum qilish uchun harbiy san'atni o'rganadi"[18]. Nomadlarning bunday tarzda kun kechirishi asrlar davomida kam o'zgargan. Masalan, Markaziy Osiyoda ot egarini yasash texnikasi deyarli o'zgarmagan. Mintaqaning janubida boqiluvchi yirik shoxli qoramollar, shimolda yashovchi chorvaga qaraganda ko'proq sut mahsulotlari berishi va go'sht qilishi aniqlangan[19]. Chunki iqlim sharoiti chorvaning mahsuldorligini oshirgan. Qolaversa, qang'liklar saklarni avlodlari bo'lgani uchun dashtda ot boqish tizimini yaxshi o'zlashtirishgan. Davanga yaqin joyda yashagani uchun ularning ot boqish usullaridan ham xabardor bo'lishgan. Ammo yilqichilikda asosan dasht otlari keng tarqalgan edi. Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyoning hozirgi mo'g'ul otlariga o'xshash nasllari (*Equus caballus* - o'rta bo'yli, chidamli ot zotlari)[20] ham ko'proq boqilgan. Bu kabi otlar xunnlardan buyon keng tarqalgan. Ularning bo'ylari 144 sm.ga teng bo'lib, uzoq yo'lga yuk tashish va minib yurish uchun qulay edi. Shu bilan birga ko'chib borilgan hududlar tabiatiga tez moslashuvchi hayvon turi sifatida o'zini ko'rsatgan. Faqatgina oziqasi uchun o't-o'lanlar va daraxt barglari mavjud bo'lsa, ushbu otlar boshqa makonlarga tez moslashgan. Qang'liklarda, qolaversa qadimgi Ikki daryo oralig'i atroflarida yashovchi nomadlar-

ning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida otlar katta ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun nomadlar tabiati mo'tadil bo'lgan hududlarni egallashgan. Tropik hududlar ko'chmanchilarning iqtisodi va yashashi uchun noqulay hisoblangan. Shu bois ular janubiy mintaqalarga ko'p ham intilmaganlar.

Otlar uyuri va yirik shoxli mollar podasini kichik tuyoqli chorva bilan boqishning o'ziga yarasha sabablari mavjud edi. Masalan: qo'y va echkilarni qishda yaylovda boqish uchun avval otlar uyuri qo'yib yuborilgan. Chunki yilqi va poda qishda yaylovda qalin qorni tuyoqlari bilan yoyib yuborib qor ostidagi o'tlarni mayda tuyoqli chorva yeyishi uchun ochib berar edi. Qolaversa, "sof" nomad chorvadorlar, yarim ko'chmanchilar kabi qishga o't-o'lan g'amlash usulidan kam foydalanishgan. Ammo tabiiy iqlimni o'zgarishi oqibatida chorvachilik uchun qulay va boy resurslarga ega joylarga ko'chib ketish imkoni bo'lmagan nomadlar, o'z mintaqasida yarim ko'chmanchi hayoti tarziga moslashishgan. Bunday imkoniyat bo'lmasligiga qator sabablarni keltirish mumkin: 1) chegaralarida boshqa kuchli ko'chmanchilar konfederatsiyasi yoki davlati mavjudligi; 2) qo'shni mintaqada ko'chmanchi chorvadorlik qilish imkoniyati yo'qligi; 3) chegaradosh hududda yashovchi o'troq aholi mentalitet bilan ko'pincha bog'liqligi bunga sabab bo'lgan. Qang'ning asosiy aholisi ham dastlab mil.avv. II-I asrlar oralig'ida "sof" ko'chmanchi hayot tarziga yaqin holatda bo'lgan. Ya'ni saklar qabilaviy ittifoqi yirik Qang' urug'i atrofida birlashib, o'zining eski nomini (sak yoki skif) yo'qotmaguniga qadar bo'lgan davrda yarim ko'chmanchilikka o'tish jarayoni sekin kechgan. Ammo bu holatni xronologik davrini belgilash, olimlar orasida qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Antik tarixchi Ptolemeyning (mil.avv. 204-122 yy) fikricha[21], Yaksart va Oks daryolari oralig'ida sug'diylar hamda skiflar yashashi aytib o'tiladi[22]. U Yaksart (sak tilida Laksad) daryosi uchta yirik irmoqning quyilishi natijasida yuzaga kelishini ta'kidlab o'tgan. Irmoqlar Yaksartning asosiy o'zani kabi "komedlar" (davanliklar-farg'onaliklar) yashaydigan tog'lardan oqib kelishi ta'kidlanadi. Antik tarixchilar Ptolemey va geograf May Tatsian (tax.milodiy 100 y.) "komed"lar mamlakati Sug'ddan keyin boshlanadigan tog'lardan keyin boshlanishini ta'kidlangan. Ular saklar (skiflar)ni asosiy yashash joyi sifatida Yaksart daryosi bo'ylab yastangan voha va dashtlar - "Skif dalalari" sifatida tilga olishgan[23]. Shunday bo'lsa-da, antik tarixchilar ko'chmanchi skiflarni Hindistonning shimolida ham yashashlarini aytib o'tishgan. Faqatgina Yaksart atrofida yashovchi saklarga sedenterizatsiyaga uchrash jarayoni nisbatan sekin kechгани ma'lum bo'ladi. Bu esa yuqorida aytgan fikrlarga dalil bo'la olishi mumkin.

O'rta Osiyo otlari sharqqa xunnlarga sotilishi[24] Xan imperiyasini uzoq vaqt qiyin ahvolda qolishiga olib kelgan. Bunga Mo'g'ulistondagi milodiy I asrga oid Noin-Ulada (Syudzyukte)gi 6-qo'rg'onidan topilgan tasvirlarda nasldor O'rta Osiyo otlari ko'rsatib o'tilgan. Shu birga qang'liklar nazoratidagi yerlardan o'tadigan savdo yo'llari orqali xunnlarga kushonlar mulki bo'lgan Panjob yerlaridan hind matolari ham yetkazib berilgan[25]. Kushonlar tovarlari Qang' orqali xatto Xunn davlatining shimoliy chegaralariga qadar yetib borgan. Bunga Tuvadagi Amrliq qo'rg'onidan topilgan arxeologik ashyolar guvohlik beradi[26].

Qadimgi qang'liklar Aris daryosi atrofida sodda dehqonchilik va baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar. Sirdaryo va uning o'rta oqimidagi irmoqlar atrofida o'troqlashish jarayoni milodiy I asrda yuzaga kela boshladi. XX asrning 60-yillarida Chordara arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan Chordara suv ombori atroflarini o'rganish chog'ida Aktobe 2 (mil. I-IV asrlar) va Shaushukumtobe (mil. III asr) sharhchalarini topib o'rganganlar. Bundan tashqari, Aktobe, Shaushukum, Jamantogay, To'rebay-Tumsik (mil. avv. III - mil. IV asrlar) va boshqa ko'rg'on shaklidagi qabrlar o'rganilgan[27] Bu yerdan topilgan ashyolar qadimda qang'liklar hayotida chorvachilikdan tashqari ovchilik ham muhim

o'rin egallaganligini ko'rsatadi. Aktobe 2 kompleksiga oid topilmalar Qovunchi madaniyatiga hosligini (Choch vohasi) o'tgan asrning 60-yillaridayoq aniqlashgan edi. Demak, Qang' konfederatsiyasining Sirdaryoni o'rta oqimidagi yerlariga dehqonchilik sivilizatsiyasi janubdan siljib borgan degan fikr kelib chiqadi. So'ngra yuqori Aris irmog'i atrofidagi Karatau-Qajantau tog'lari etaklaridagi antik davr o'troq dehqonchilik manzilgohlari o'rganila boshlandi. Dastlabki izlanishlar Aris vohasi etaklaridagi topilmalar (keramika va metal buyumlar) bu yerda muqim o'troq dehqonchilik mil. avv. I – mil. I asrlarda yuzaga kelganligidan dalolat berdi. Sirdaryo qirg'oqlarida qang'liklar davriga oid shaharchalar 14 ga maydonga ega Juantobe (I –IX asrlar), Karaspan (I –XVIII asrlar), Kultobe va boshqa yirik aholi manzillari topib o'rganilgan[28]. Ammo o'rganilmagan ko'plab tepaliklar ilk shaharlar bo'lishi ham mumkin. Yirik dehqonchilik maskanlari bo'lgan Sug'd va Chochdan uzoqligi tufayli, Qang' davlatining bu hududlarida o'troq sivilizatsiya boshqa yerlarga nisbatan tez rivojlangan. U yerdagi tepaliklar protoshahar yoki yirik mustahkamlangan qo'rg'on shaklida bo'lgan. Ammo shunday bo'lsa-da, milodiy II asrda Qang' davlati shaharlari aholisi ko'paygan. Aris daryosi bo'ylarida joylashgan shaharlarning katta qismida rabotlarning mavjudligi, bu yerda ichki mintaqaviy savdo-sotiq va urbanizatsiya jarayonlari ro'y berganligidan darak beradi. Aris vohasi Chochning shimolidagi ijtimoiy-iqtisodiy plasdarmi edi. Qang'ning iqtisodiy asosi bo'lgan Choch, Arisning quyi oqimiga qadar bo'lgan yerlarni o'z tarkibida ushlab turgan[29].

O'troq aholi soni Qang' davlatida sidenterizatsiyaga uchrash jarayoni sekin kechganligi tufayli Sirdaryoni o'rta oqimi va Orol bo'yi hududlarida yashovchi nomadlarni xunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyojlarini to'liq qondira olmas edi. Ichki sidenterizatsiya mamlakat aholi hayotida muxim o'rin egallagan. Qang' davlatining chorvador aholisi o'troq hududlardagi hunarmandlar mahsulotlariga doimiy

ehtiyoj sezganlar. Shuning uchun Qang' davlati Sug'd yerlaridagi hunarmandchilik markazlarini nazoratda tutib turishga harakat qilgan. Qolaversa, Qang'ning ko'chmanchi va o'troq aholisi maqomi teng bo'lgan. Chorvador aholining asosiy uy hayvonlari bu qo'y va echkilar hisoblangan. Ularni boqish uchun unchalik katta mehnat sarf qilinmagan. Ammo yaylovlarning doimiy yetishmovchiligi va chorvaning epidemiyalardan mollarning qirilishi ko'chmanchilar xayotini og'irlashtirgan. Shunday bo'lsa-da, qadimgi Xitoy solnomalariga asoslansak, Qang' davlatining aholisi mil.avv. I-II asrga kelib, 500 ming nafardan kam bo'lgan. Markaziy Osiyoda 600 ga yaqin o'simlik turi bo'lib, shulardan 570 xil turini mayda tuyuqli chorva iste'mol qilgan. O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'chib yurish, ov qilish va xarbiy harakatlar uchun zarur hisoblangan otlar 80 xil o'simlikni yeya olgan. Yirik shoxli qoramol esa 55 turga yaqin o't-o'lanlarni iste'mol qilgan[30]. Shundan ko'rinib turibdiki, mayda tuyuqli uy hayvonlari ko'chmanchilar hayotida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Qang' va Choch aholisi yarim chorvachilikdan uzoqlashib, o'troq chorvachilikka o'tish jarayoni kuchaydi. Shu asrda yirik chorva mollaridan yer haydashda foydalanilgan. Ammo bu jarayon Sug'd va Chochning daryolari atrofidagina ro'y bergan. Ayni vaqtda, Qang' davlati iqtisodida chorvachilikka katta e'tibor berilgan. Bu hududdagi aholining to'la o'troq chorvachilikka o'tishining iqtisodiy sabablari bo'lsa-da, siyosiy hokimiyat nomadlardan chiqqan sulolalar nazoratida edi. Ya'ni davlatchilik asosini kelib chiqishi chorvador aristokratiya bo'lgan suvoriylar tashkil qilgan. Shuning uchun otlarni doimiy boqishga yaylovlar kerak bo'lar edi. Mamlakatda harbiy iqtisodiyotni yuritish, o'troq aholi ishlab chiqaruvchi mahsulotlarini doimiy ta'minotini yo'lga qo'yish, davlatning asosiy vazifalardan biri hisoblangan.

ADABIYOTLAR

1. Свиридов А.Н. Кангюйская проблема в археологии Казахстана. // Проблемы истории, филологии, культуры. – Москва, 2012, – С 113.
2. O'sha joyda. – В. 113.
3. Байпаков К.М. Выдающиеся археологические памятники Казахстана. – Алматы: “Асыл Сөз”, 2014, – С 86.
4. Байпаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана: Учебное пособие для студентов вузов.– Алматы: Qazak universiteti, 2006., – С 147.
5. Средняя Азия в древности и средневековье (история и культура). Под.ред. Гафурова Б.Г.и Литвинскийкого Б.А. – М.,1977, – С 42.
6. Литвинский Б.А. Об изучении в 1955 г. Погребальных памятников кочевников в Кара–Мазарских горах.// Археологические работы в Таджикистане в 1955 году. – Сталинабад., 1956, – С 42.
7. Бернштам А.Н. Древняя Фергана.– Ташкент, 1951. – С. 8.
8. Байпаков К.М., Воякин Д. Выдающиеся археологические памятники Казахстана. – Алматы: Асыл Сөз, 2014. –С. 91.
9. Ходжаев А.О топониме Канцзюй в древнекитайских источниках//“O'zbekiston–Xitoy: Tarixiy–madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalari rivoji” mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari.– Toshkent., 2020, – В. 482.
10. Бичурин И.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. II том. – Москва, 1950. –С 187.
11. O'sha joyda – В. 186.
12. O'sha joyda – В. 188.
13. Подушкин А.Н. Уникальные эпиграфические артефакты городища Култобе. // Актуальные проблемы исторических дисциплин в системе образования Казахстана. – Шымкент, 2008. – С. 15.
14. Байпаков К. М. Древние города Казахстана. — 2–е изд., перераб. и доп.– Алматы., 2007 – С. 27.
15. Литвинский Б.А. Кангюйско–сарматский фарн. (к историко–культурным связям племен южной России и Средней Азии). – Душанбе. 1968. – С. 21.
16. Байпаков К.М. Древние города Казахстана. — 2–е изд., перераб. и доп.– Алматы., 2007– С. 27.
17. Байпаков К.М. Воякин Д.А. Казахский отрезок Великого Шёлкового пути в серийной номинации ЮНЕСКО. “Археологическая экспертиза”,– Алматы., 2012. – С. 32.
18. Крадин Н.Н. Кочевники Евразии.– Алматы, 2007.– С. 123.
19. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – Москва, 2001.– С. 67–68.
20. O'sha joyda – В. 67.
21. Doniyorov. A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi.– Toshkent., 2020. – В. 71.
22. Пянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции. Источниковедческий анализ. – Москва, 1997. – С. 270–271.

24. O‘sha joyda – В. 270.
25. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – Москва, 2001. – С. 68.
26. <http://dostoyanieplaneti.ru/3463–poin–ula–sutszakte>.
27. Василков Я.В. Воспоминания Амырлыкские разговоры с. Манделштамов А.М.// Древние и средневековые культуры Центральной Азии. Становление, развитие и взаимодействие урбанизированных и скотоводческих обществ. – Санкт-Петербург; 2020. – С. 20.
28. Подушкин А.Н. Арысская культура Южного Казахстана: IV в. до н. э.—VI в. н. э. – Туркестан., Изд-во “МКТУ” имени Ясави Х.А . 2000, – С. 11.
29. Байпаков К.М. Воякин,Д.А. Казахский отрезок Великого Шёлкового пути в серийной номинации ЮНЕСКО. “Археологическая экспертиза”,– Алматы., 2012. – С. 42–43.
30. Беруний. Канон Маъсуда. Соч. Т. V.– Ташкент, 1973. – С 471.
31. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – Москва, 2001. – С. 68.



Ixom JO'RAYEV,
Guliston davlat universiteti "Tarix" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: ijurayev1990@gmail.com

Guliston davlat universiteti T.f.f.d. dos., Q.O Almanov taqrizi asosida

ETHNIC COMPOSITION OF SYRDARYA IN THE LATE 20TH AND EARLY 21ST CENTURIES

Аннотация

In this article, changes in the ethnic composition of the Syrdarya region in 2000, 2010, and 2020 are shown in an inter-district order. The emigration of the Kazakh and Tatar, Russian diasporas is reflected. Their unique history is highlighted. The information presented in the scientific article was analyzed based on the statistical data of the State Archive of the Syrdarya region.

Key words: 2000, 2010, 2020, Kazakhs, Tatars, Russians, ethnic composition, population migration, ethnic composition of districts, ethnic migration, nationalization.

ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ СЫРДАРЫИ В КОНЦЕ XX - НАЧАЛЕ XXI В

Аннотация

В данной статье показаны изменения этнического состава Сырдарьинской области в 2000, 2010 и 2020 годах в межрайонном порядке. Отражена эмиграция казахской и татарской, русской диаспор. Освещена их уникальная история. Информация, представленная в научной статье, проанализирована на основе статистических данных Государственного архива Сырдарьинской области.

Ключевые слова: 2000, 2010, 2020, казахи, татары, русские, национальный состав, миграция населения, национальный состав районов, этническая миграция, национализация.

SIRDARYO VILOYATINING XX ASR BOSH LARI – XXI ASR OXIRLARIDAGI ETNIK TARKIBI

Аннотация

Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining etnik tarkibini 2000-, 2010-, 2020- yillarda o'zgarishi tumanlar tartibida ko'rsatilgan. Qozoq va tatar, rus diasporalarining ko'chib ketishi aks etgan. Ularning o'ziga xos tarixi yoritib berilgan. Ilmiy maqolada keltirilgan ma'lumotlar Sirdaryo viloyati Davlat arxivi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: 2000, 2010, 2020, qozoqlar, tatarlar, ruslar, etnik tarkibi, aholi migratsiyasi, tumanlarning milliy tarkibi, etnik migratsiya, milliy lashtirish.

Kirish. 1980-1990-yillar oralig'ida nafaqat mamlakati-mizda, balki Ittifoq miqyosida yuz bergan jarayonlar Sirdaryo viloyati demografiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. 1980-yilarning o'rtalarida qayta qurish, oshkoralik siyosati natijasida barcha ittifoqdosh respublikalarda "baynalmilalchilik siyosatiga" birmuncha putur yetib, milliy uyg'onish, turli millatlarning o'z tarixiy vatanlariga qaytish istagi va hokazo kabi masalalar ko'tarila boshlaydi. Bu holat ayniqsa qrim tatar, mesxeti turk va yana bir asli qator kavkazlik bo'lgan millatlarning o'z vatanlariga ko'chib keta boshlashlarida kuzatiladi. Bu jarayon Sirdaryo viloyati aholisining demografik holatida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida 20 ming kishi atrofida bo'lgan qrim tatarlar yoppasiga Qrimga ko'chishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, 1989-1990-yillardagi o'zbek va mesxeti turklar orasida Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida kelib

chiqqan nizolar Sirdaryo viloyati demografiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular ham viloyatda qariyb 20 ming kishiga yaqin bir salmoqqa ega millat sifatida o'zlarining bir qator aholi maskanlarini barpo qilishgan va viloyat aholisining bir qismiga aylangan edilar. 1990- yillar boshida ularning katta bir qismi Rossiya, Qozog'iston va boshqa hududlarga ko'chib ketishlari natijasida 2000-yilga kelib Sirdaryo viloyatidagi mesxeti turklarining soni keskin kamayib, ularning viloyatdagi 5 mingga tushib qoldi. Shunga o'xshash holat qrim tatarlarda ham kuzatilib, quyidagi 2000-yilga tegishli statistik jadvalda ularning soni 4.4 ming kishi o'laroq ko'rsatilishida o'z ifodasiga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 2000-yildagi statistik ma'lumotlarda Sirdaryo viloyati aholisi soni va etnik tarkibi shahar va tumanlar kesimida quyidagi berilgan [1]:

Наименование городов и районов области	Численность населения Всего	Распределение численности населения по национальностям													
		Узбеки	Таджики	Русские	Казахи	Киргизы	Татары	Азербайджанцы	Украинцы	Армяне	Корейцы	кр Татары	Тури	Немцы	Прочие
Сырдарьинская область	642,2	452,1	55,4	37,3	25,9	12,4	6,6	2,8	2,2	1,2	10,7	4,4	5,0	0,5	25,7
город Гулистан	73,2	46,5	3,1	9,1	1,4	0,1	1,8	0,6	0,6	0,3	3,6	1,4	1,1	0,2	3,4
город Ширин	13,9	8,9	0,6	3,0	0,0	0,1	0,4	0,0	0,0	0,0	0,4	0,2	0,0	0,0	0,3
город Янгйер	55,5	25,0	11,8	10,3	0,5	0,1	1,3	0,4	0,5	0,6	1,1	0,2	0,0	0,0	2,5
Акмалтынский район	50,4	37,1	1,3	1,1	6,6	0,8	0,4	0,0	0,1	0,0	0,4	0,1	0,0	0,0	3,1
Баяутский район	79,1	65,9	8,0	1,0	0,0	0,1	0,3	0,1	0,0	0,0	0,1	0,3	0,2	0,0	3,1
Сайхунбадский район	59,0	34,4	9,1	0,8	9,5	0,1	0,2	0,0	0,1	0,0	0,7	0,6	0,5	0,0	3,3
Гулистанский район	50,1	42,6	2,3	1,3	0,3	0,2	0,4	0,1	0,1	0,0	0,5	0,1	0,4	0,0	1,4
Ш.Рашидовский район	49,7	35,6	1,1	1,2	0,3	9,2	0,4	0,1	0,0	0,0	0,2	0,1	0,8	0,0	0,3
Мирзабадский район	41,5	37,1	0,8	0,9	0,4	0,5	0,3	0,1	0,0	0,0	0,2	0,1	0,0	0,0	0,3
Мехнатбадский район	23,1	20,4	0,4	0,4	0,2	1,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,3
Сырдарьинский район	102,4	59,1	13,2	7,9	6,9	0,0	0,9	1,2	0,7	0,3	3,3	1,3	2,0	0,0	5,6
Хавастский район	44,3	39,5	3,7	0,3	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,3

Ushbu jadvalda o'rin olgan Sirdaryo viloyati aholisini etnik tarkibiga ko'ra sonini oradan 10 yil keyingi statistik jadvalda keltirilgan raqamlar bilan solishtiradigan bo'lsak, ayrim millatlarning soni birmuncha ortgani, ayrimlarining soni esa keskin tushib ketganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek, tojik, qirg'iz, tatar va ozarbayjon millatlarining soni birmuncha oshgan bo'lsa, rus, qozoq va koreyslarda keskin kamayish, ukrain, arman va nemislar sonida birmuncha pasayish bo'lganligi kuzatiladi. Viloyat aholisi etnik tarkibida o'ziga xos o'rni bo'lgan va 2000-yilgi statistik ma'lumotlarda 4.4 ming kishi deb keltirilgan qrim-tatarlar quyidagi jadvalda umuman ko'rsatilmaydi. Buning sababi, ularning bir qismi

tarihiy vatani Qrimga ko'chib ketishlari bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tarafdin ular qozon tatarlari bilan qo'shib ko'rsatilgan bo'lishi ham mumkin. Buni 2010-yilgi statistik jadvalda tatarlar sonining birmuncha yuqori ko'rsatilishi ham tasdiqlaydi. Aslida qozon tatarlari ham rus va rus tilli boshqa millatlar qatorida keyingi o'n yilliklarda RF tarkibidagi Tatariston avtonom respublikasiga ko'chib keta boshlaganligi kuzatiladi.

2010-yildagi statistik ma'lumotlarda Sirdaryo viloyati aholisi soni va etnik tarkibi shahar va tumanlar kesimida quyidagi berilgan[2]:

Наименование городов и районов	Численность населения всего (тыс.чел)	Распределения численности населения по национальностям												
		Узбеки	Таджики	Русские	Казахи	Киргизы	Татары	Азербайджанцы	Украинцы	Армяне	Корейцы	Туркмены	Немцы	Прочие
Всего по области	714,4	544,5	65,8	26,4	15,2	14,7	7,2	2,9	1,2	1,0	6,9	0,6	0,2	27,8
г. Гулистан	77,4	56,2	4,1	7,6	1,0	0,5	1,7	0,6	0,3	0,3	2,2	0,1	0,1	2,7
г. Ширин	16,6	13,1	0,7	1,5	0	0,1	0,5	0	0	0	0,2	0	0	0,5
г. Янгийер	32,2	18,3	6,8	3,4	0	0,1	0,5	0,2	0,1	0,2	0,2	0	0,1	2,3
Акалтынский район	51,7	40,9	1,8	0,9	3,5	1	0,3	0	0,1	0	0,3	0	0	2,9
Баяутский район	107,8	92,6	9,5	0,9	0,1	0,3	0,5	0,2	0	0	0,1	0,1	0	3,5
Сайхунабадский район	64,9	44,4	10,2	0,5	5	0,3	0,6	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	3,2
Гулистанский район	59,0	51,1	3,1	0,7	0,4	0,4	0,5	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	2,1
Сардобский район	55,8	40,9	1,7	1,0	0,4	9,9	0,3	0,1	0,1	0	0,2	0	0	1,2
Мирзабадский район	59,6	55,2	1,7	0,5	0,4	0,5	0,4	0	0	0	0,2	0,1	0	0,6
Сырдарьинский район	108,8	72,1	15,0	5,4	3,9	0,3	1,2	1,4	0,3	0,3	2,2	0,1	0	6,6
Хавастский район	80,6	59,7	11,2	4,0	0,5	1,3	0,7	0,2	0,1	0,2	0,5	0	0	2,2

2010-yildagi Sirdaryo viloyati aholi soni va uning etnik tarkibiga qarab o'zgarishini 2011-yildagi statistik ma'lumotlarga qarab tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ko'lamida o'zbek, tojik, qirg'iz va koreyslarning sonida o'sish kuzatilgani, rus, qozoq, ukrain, tatar va boshqa bir qator kam sonli millatlar sonida esa pasayishi bo'lganligi ko'zga

tashlanadi. Shuningdek, ushbu jadvallarda o'rin olgan turkman, ozarbayjon, arman va nemislar sonida o'zgarish bo'lmaganligi ko'rinadi.

2011-2012-yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati shahar va tumanlar aholisining soni va etnik tarkibi quyidagicha bo'lgan[3]:

Наименование городов и районов	Численность населения всего (тыс.чел)	Распределения численности населения по национальностям														
		Узбеки	Коркалпок	Русские	Казахи	Таджики	Туркмены	Киргизы	Украинцы	Беларус	Азербайджанцы	Татары	Немцы	Армяне	Корейцы	Прочие
Всего по области	739,5	569,5	0,1	25,0	13,8	68,5	0,6	15,2	1,1	0,4	2,9	6,9	0,2	1,0	8,9	25,4
г. Гулистан	82,6	60,0	0,0	7,5	1,1	4,4	0,1	0,5	0,3	0,1	0,6	1,6	0,1	0,3	2,6	3,4
г. Ширин	17,2	13,2	0,0	1,5	0,0	0,9	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,5	0	0	0,5	0,5
г. Янгийер	36,9	21,2	0,1	3,4	0,8	6,8	0,0	0,2	0,1	0,1	0,2	0,5	0,1	0,2	0,6	2,6
Акалтынский район	45,2	39,2	0,0	0,3	1,1	2,2	0,0	1,0	0,2	0,0	0,0	0,3	0	0	0,3	0,6
Баяутский район	112,6	95,7	0,0	0,9	1,3	9,8	0,1	0,4	0,0	0,0	0,2	0,5	0	0	0,4	3,3
Сайхунабадский район	67,2	46,9	0,0	0,5	4,2	10,5	0,1	0,5	0,1	0,0	0,1	0,6	0	0	0,6	3,1
Гулистанский район	61,5	53,2	0,0	0,7	0,5	3,4	0,1	0,4	0,1	0,0	0,1	0,5	0	0	0,4	2,1
Сардобский район	57,0	42,7	0,0	1,0	0,2	2,0	0,0	9,8	0,1	0,0	0,1	0,3	0	0	0,2	0,6
Сардобский район	57,0	42,7	0,0	1,0	0,2	2,0	0,0	9,8	0,1	0,0	0,1	0,3	0	0	0,2	0,6
Мирзабадский район	61,2	57,6	0,0	0,3	0,1	1,9	0,1	0,5	0,0	0,0	0,0	0,4	0	0	0,2	0,1
Мирзабадский район	61,2	57,6	0,0	0,3	0,1	1,9	0,1	0,5	0,0	0,0	0,0	0,4	0	0	0,2	0,1
Сырдарьинский район	113,9	77,4	0,0	5,3	3,4	15,0	0,1	0,5	0,2	0,1	1,4	1,2	0	0,3	2,4	6,6
Сырдарьинский район	113,9	77,4	0,0	5,3	3,4	15,0	0,1	0,5	0,2	0,1	1,4	1,2	0	0,3	2,4	6,6

Bugungi kunda, ya'ni 2020-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati O'zbekistonning aholisi eng kam viloyati bo'lib, bu yer umumiy aholisining soni 846 260 kishini tashkil qiladi. Aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashab, 57,2% ni shahar aholisi 42,8% ni tashkil etgan.

Shuningdek, viloyat aholisining katta qismi o'zbeklar iborat bo'lib, 668 762 kishini tashkil etgan[4]. X.Egamqulovning Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asoslanib yozishicha, 2020-yilda viloyat aholisining etnik tarkibi quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida)[5]:

	Sirdaryo viloyati	Guliston	Shirsh	Yangiyul	Qoplin	Boyyul	Sayunobod	Guliston	Sardoba	Mirzabod	Sirdaryo	Xovos
Jami aholi	846260	90398	18726	43307	51967	129503	77157	72453	65889	73249	128174	99441
Shu jumladan												
o'zbek	668762	69142	14721	30679	42319	113381	55566	63671	49830	68439	88491	72523
Qoraqalpog' rus	127	10	3	19	2	2	1	16	0	33	39	2
ukrain	22768	6552	1416	2521	599	881	1078	792	713	418	4304	3494
belorus	926	189	85	8	173	77	33	107	71	35	111	37
qozoq	398	61	22	7	18	38	14	55	17	21	94	51
ozarbayjon	12915	1021	46	171	2928	439	3799	506	432	408	2549	616
qirg'iz	2874	599	16	120	48	217	125	126	64	72	1412	75
tojik	17757	561	132	166	761	460	570	426	12187	539	400	1555
turkman	78587	5824	1044	6919	2115	11033	11664	3430	1130	2220	19309	13899
tatar	716	95	43	53	28	111	112	120	21	14	86	33
koreys	5911	1278	438	153	276	471	495	628	280	196	1305	391
Boshqa millatlar	7910	1966	191	345	359	109	821	411	216	215	2769	508
	26609	3100	569	2146	2341	2284	2879	2165	924	639	7305	2257

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy, tarixiy va germanevtik taxlil usullari asosida Sirdaryo viloyatidagi etnik jarayonlar tadqiq etildi. XX asrda O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida amalga oshirilgan turli islohatlarning deyarli barchasi mintaqaning Mirzacho'l vohasida yanada yaqqolroq o'z ifodasini topadi. Bungacha o'zbek xonliklari davrida nisbatan km o'zlashtirilgan va aholisi birmuncha tarqoq yashagan vohada yoppasiga o'zlashtirish ishlari boshlab yuboriladi. Sobiq ittifoq davrida bu hudud aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayonlarida o'ziga xos "tajriba maydoni"ga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Asosiy maqsadi rus tilida so'zlashuvchi "sovet kishisini" yaratish bo'lgan va bu maqsadni "internatsionalizm" (baynalmilalchilik), turli xalqlar qardoshligi g'oyasi ostida amalga oshirishga intilgan kommunistik hukumat Mirzacho'lda yangi aholi maskanlari tashkil etib, ittifoqning turli hududlaridan aholini keltirib joylashtira boshlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Sovet hukumati davrida Mirzacho'l vohasidagi rayon (tuman)lar, kolxoz va sovxozlar asosan kommunistik partiya yetakchilarining ism-familiyalari bilan nomlanadi. Bu ham sovet hukumatining "yagona sovet xalqi"ni yaratishda qo'llagan usullaridan biri edi. Bu ishni amalga oshirishda Markazdagilar turli shiorlarni o'rta ta'lim, ittifoqning markaziy qismlaridan slavyanlar (rus, belorus, ukrainlar)ni, Volgabo'yidan tatarlarni, Kavkaz-

dan ozarbayjon, armanilar va boshqalarni jalb qiladi. Shu bilan birga, mahalliy hukumat ham imkon qadar mahalliy aholini Mirzacho'ldagi yangi aholi maskanlari siyosatini olib borib, ularning son jihatdan oshishini ta'minlaydilar.

Xulosa va takliflar. Qisqasi, XXI asr ilk o'n yilliklarida Mirzacho'l vohasi, xususan, Sirdaryo viloyati aholisining etnik tarkibida anchagina o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, bu o'zgarishlar ayrim millatlar sonining ortishi, ayrimlarida pasayish kuzatilishida o'z ifodasini topdi. Viloyat aholisining milliy tarkibi va miqdor o'zgarishlarining negizida bir qator omillar yotadi. Birinchidan, viloyatning rus tili aholisiga nisbatan o'zbek, tojik, qirg'iz kabi mahalliy aholi vakillari orasida tug'ilishning birmuncha yuqoriligi bo'lsa, ikkinchidan, ayrim millatlar vakillarining o'z tarixiy vatanlariga ommaviy ravishda ko'chib ketishlari kabi omillar o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, ruslar, ukrainlar, beloruslar, kavkazliklar (ozarbayjon, arman va h.k.), qozoqlar orasida ommaviy ravishda ko'chib ketishlar kuzatildi.

Bu masala bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular orasida U. Mirzaliyev, H. Xushvaqtovlarning ishlari anchagina keng qamrovlidir. Quyida U. Mirzaliyevning Sirdaryo viloyati aholisi milliy tarkibi 2005-yil 1-yanvar holati bo'yicha keltirgan jadvalni keltirib o'tamiz (Ming kishi.foiz hisobida) [6]:

Ўзбек	қорақалпоқ	тожик	рус	Қозоқ	татар	қирғиз	корейс	туркман	Бошқа миллатлар
74,0	0,01	8,9	4,4	3,4	1,2	2,0	1,2	0,01	4,6

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, Sirdaryo aholisining etnik tarkibi anchagina rangbarangdir. Shu bilan birga, viloyatda o'zbeklar asosiy ko'pchilikni tashkil etadi. Son jihatdan ikkinchi o'rinda turuvchi tojiklar esa 9% atrofida, ruslar uchinchi o'rinda – 4,4%, qozoqlar esa 3,4 % dir. Bir

vaqtlar Mirzacho'l vohasi mahalliy aholisining sezilarli bir qismini tashkil qilgan qozoqlarning qo'shni respublikaga keng ko'lamda ko'chishlari natijasida ularning soni nisbatan kam foizni tashkil qila boshlagani ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zR Davlat statistika qo'mitasi. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. Demografiya va Mehnat bo'limi.10-07/3*A. 2000.
2. O'zR Davlat statistika qo'mitasi. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. Demografiya va Mehnat bo'limi.10-07/3*A. 2010.
3. O'zR Davlat statistika qo'mitasi. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. Demografiya va Mehnat bo'limi.10-07/3*A. 2010.
4. Egamkulov Kh.E. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi uning geokriminologien holatga ta'siri // Elektronnoye nauchno-prakticheskoye periodicheskoye izdaniya "Ekonomika i sotsiumyu Vyr. 1 (80) chast (yanvar,2021). <http://www.iupr.ru>. 2011.
5. Egamkulov Kh.E. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi uning geokriminologien holatga ta'siri // Elektronnoye nauchno-prakticheskoye periodicheskoye izdaniya "Ekonomika i sotsiumyu Vyr. 1 (80) chast (yanvar,2021). <http://www.iupr.ru>. 2011.
6. Mirzaliyev U.B. O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari. – B. 97.



UDK: 94 (575.1):32("1867/1917")

Muxlisa KAMOLOVA,
O'zMU, Tarix fakulteti, "O'zbekiston tarixi" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: kamolova.muxlisa7@mail.ru

Farg'ona davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida mudiri, t.f.f.d. (PhD), dosent N.O.Alimova taqrizi asosida

THE GOVERNOR-GENERAL OF TURKESTAN IS ACCUSED OF LIBERALISM

Annotation

This article reveals the political activities of Dean Ivanovich Subbotich, one of the governors-general of the country who worked in Turkestan at the beginning of the 20th century. Also, the article describes D.I. Subbotich's views on political and social processes in the country, his relations with the population, his anti-revolutionary policy based on archival documents, memoirs and collection data, as well as foreign and local scientific research on the subject.

Key words: Russian Empire, Land of Turkestan, Dean Ivanovich Subbotich, Governor-General, Military Governor, administration, liberalism.

ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОР ТУРКЕСТАНА ОБВИНЁННЫЙ В ЛИБЕРАЛИЗМЕ

Аннотация

В статье раскрывается политическая деятельность одного из генерал-губернаторов Туркестанского края в начале XX века, Деана Ивановича Субботича, которого впервые в истории колонии обвинили в либерализме, исключив его из должности за "сочувствие революционным настроениям в стране". Также в статье были освещены взгляды Д.И. Субботича на политико-социальные процессы в стране, отношения с населением, контрреволюционную политику на основе архивных документов, с источниками той эпохи, мемуарных и коллекционных данных, а также информации зарубежных и отечественных научно-исследовательских работ по теме.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанский край, Деан Иванович Субботич, генерал-губернатор, военный губернатор, управление, либерализм.

LIBERALIZMDA AYBLANGAN TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshida Turkistonda faoliyat olib borgan, o'lkaga general-gubernatorlaridan biri, mustamlaka tarixi davomida ilk marotaba "o'lkadagi inqilobiy kayfiyatlarga hamdardlik" qilgani uchun mansabidan chetlashtirilib, liberalizmga ayblangan Turkiston general-gubernatori Dean Ivanovich Subbotichning siyosiy faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada D.I.Subbotichning o'lkadagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga bo'lgan qarashlari, aholi bilan munosabatlari, inqilobchilarga qarshi siyosati haqida davr manbalari bo'lgan arxiv hujjatlari, memuar asar va to'plam ma'lumotlari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqot ishlari ma'lumotlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston o'lkasi, Dean Ivanovich Subbotich, general-gubernator, harbiy gubernator, boshqaruv, liberalizm.

Kirish. Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari natijasida egallagan hududlarda tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligida hokimiyatning oliy bo'g'ini general-gubernatorlar va uning yordamchisi harbiy gubernatorlar qo'lida edi. O'lkada hukmronlik qilgan Turkiston general-gubernatorlarining deyarli barchasi bir xil qolipga ega bo'lib, "podshoh va vatanga" sadoqat va e'tiqod bilan xizmat qilishgan. Turkiston general-gubernatorlari Rossiya generalitetining tipik vakillari edi. Ammo o'lkaga mustamlakachilik tarixi davomida ilk marotaba general-gubernator "o'lkadagi inqilobiy kayfiyatlarga hamdardlik" qilgani uchun liberalizmga ayblangan va mansabidan chetlashtirilgan Turkiston general-gubernatori Dean Ivanovich Subbotich edi[6].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida oliy hokimiyat vakillari hisoblangan general-gubernatorlar, jumladan D.I.Subbotich o'lkadagi faoliyati haqida davr manbalari bo'lgan arxiv xujjatlari (O'zbekiston Milliy arxivi I-1-fondi 40-yig'ma jild va Rossiya Davlat tarix arxivi 1276-fondi 36-yig'ma jild) materiallari va Rossiya imperiyasi harbiy vaziri A.F. Rediger (1918-1920) memuari, N.L. Yagelloning (1906) to'plagan ma'lumotlarida uchratish mumkin. Shu bilan birga rus tadqiqotchisi M.E. Shushkovaning (2015.) ilmiy tadqiqot ishi hamda xorijiy tadqiqotlar S.Becker (2004), U.Tomohiko (2012) tadqiqotlarida D.I. Subbotichning Turkistondagi

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtirok hamda uning pozitsiyasi haqida alohida to'xtalib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda ma'lumotlarni siyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Dean Ivanovich Subbotich – serb dvoryanlari oilasidan kelib chiqqan. 1852-yilda Venada tug'ilgan, ilk ta'limni Avstriya imperiyasida olib, so'ngra Bosh shtab Nikolay Akademiyasida tahsil olgan (1871-1874). D.I. Subbotich Rossiya imperiyasi armiyasining general-leytenant (1900) hamda Rossiya-Turkiya urushi qatnashchisi (1877-1878) hisoblanadi. U faoliyatini turli darajadagi mansablarda ya'ni, 2-Turkiston armiyasi korpusi qo'mondoni va Kaspiyorti viloyati boshlig'i (1900-1902), Amurbo'yi general-gubernatori (1902-1903), Turkiston general-gubernatori (1905-1906), Yaltadagi Serbiyaning faxriy konsuli (1918) olib borgan.

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan 1905-yil noyabr oxirida general-leytenant D.I. Subbotich Turkiston general-gubernatori, shu bilan birga o'lkaga harbiy okrugi boshlig'i, Yettisuv kazak qo'shinlari boshlig'i (atamani) etib tayinlandi. D.I. Subbotichning hokimiyatga kelishi, 1904-1905-yillarda Rossiya imperiyasi Yaponiya bilan muvafaqqiyatsiz urushni tugallagan va 1905-yilda mamlakat ichida Birinchi rus inqilobi avj olib, uning to'liqlari Turkiston o'lkasiga yetgan o'ta ziddiyatli qiyin davrga to'g'ri keldi.

1905-1909-yillarda Rossiya imperiyasining harbiy vaziri lavozimida faoliyat yuritgan Aleksandr Fyodorovich Rediger o'z xotiralarida[5] shunday yozadi: "Noyabr oyining oxirida Turkiston general-gubernatori lavozimi talablariga zo'rg'a javob beradigan general Tevyashovning vafot etgani haqida xabar keldi. Ma'lumki, bu davrda Turkiston o'lkasida ham qiyin vaziya hukm surayotgan edi. Shuning uchun Turkiston general-gubernatori lavozimiga hududda qat'iyat bilan ish yurituvchi va O'rta Osiyoni yaxshi biluvchi shaxs kerak edi. Afsuski, mening tanlovim Subbotichda to'xtadi"[6].

Turkiston o'lkasiga yangi general-gubernator etib tayinlangan D.I.Subbotich temiryo'lchilarning ish tashlashi tufayli 1906-yil boshiga kelibgina Toshkentga jo'nab ketishga muvaffaq bo'ldi. Uning Peterburg jurnalistlariga bergan intervyusida o'zining siyosiy faoliyati haqida quyidagicha: "... shu paytgacha meni liberal deb hisoblashadi. Men har doim barcha ijtimoiy tashabbuslarga yaxshi munosabatda bo'lganman va hatto jamoatchilik tashabbusini kuchaytirishga undaganman. Matbuotga munosabatim haqida ham shunday deysim mumkin. O'lkani vijdonan boshqaraman, jamiyat bilan kuchli xayrixohlik munosabatida bo'laman" [7] – deb bayonot bergan edi.

Ajablanarlisi shundaki, Rossiya hukumati bu liberal bayonotni e'tiborsiz qoldirdi. Harbiy vazir A.F. Rediger keyingi voqealar to'g'risida shunday yozadi: "Men Subbotichni Harbiy Kengash a'zosi sifatidagina bilardim, u yig'ilishlarda kam, lekin, foydali va ochiqchasiga gapirardi. Boshqalarning fikriga qaramay, Subbotich menda aqlli odam sifatida taassurot qoldirgan, Xabarovskda general-gubernator bo'lgan, Turkistonda uzoq vaqt xizmat qilgan, bir so'z bilan aytganda u Toshkent uchun eng yaxshi nomzod edi"[5]. Shuningdek, harbiy vazir A.F.Rediger Turkiston uchun bu davrda qattiqqo'l emas, shafqatsiz boshqaruvchi kerak deb hisoblagan. Bunga asosiy sabab esa, Turkiston o'lkasiga jahonda ro'y berayotgan inqilob to'lqinlari yetib kela boshlagan, qiyin vaziyat hukm surayotgan edi.

Turkistonning mahalliy musulmon aholisi tomonidan kuchayib borayotgan norozilik kayfiyatidan qo'rqib, Sankt-Peterburg 1906-yil yanvar oyida Toshkentga yangi general-gubernator general-leytenant D.I.Subbotichni yubordi. Bu ma'mur moslashuvchan, bag'rikeng va liberal (avvalgisidan farqli o'laroq) mahalliy musulmonlar jamoasining ehtiyojlarini qondirishga tayyor edi.

Turkiston poytaxti Toshkent shahri gazetalarida yangi tayinlangan general-gubernator D.I. Subbotichning Toshkentga kelishi va uni kutib olgan ma'muriyat mutasaddilari va mahalliy aholi vakillariga qilgan nutqi haqida ma'lumotlar e'lon qilingan edi. Bu nutq liberal ruhda edi va D.I. Subbotichning aytishicha, "aholiga har xil erkinliklar berilgan va buni himoya qilish lozim, ammo erkinliklarni yanada kengaytirish qonuniy yo'ldan borishi kerak"[1].

D.I. Subbotich Turkiston general-gubernatori bo'lgan davrda Rossiya imperiyasi Vazirlar Kengashi keng ko'lamli masalalarni muhokama qila boshladi, shunday muhim masalalardan biri Turkiston o'lkasining idoraviy mansubligi masalasi edi. Ushbu masala mohiyatida Turkiston o'lkasi boshqaruvini Harbiy Vazirlikdan Ichki Ishlar Vazirligiga o'tkazish rejalashtirilgan edi. Harbiy vazir A.F. Redigerning fikriga ko'ra, Turkistonda Ichki Ishlar Vazirligiga o'tkazish masalasi "bizning davlatimiz to'la tinchlanmaguncha" unchalik ham ahamiyatga molik emas va bu masala faqat asosli ravishda oldindan tayyorgarlik ko'rib hal qilinishi mumkin deb hisoblandi[4]. Natijada islohot amalga oshmadi.

Faoliyatini dastlabki vaqtlarida D.I.Subbotich harbiy vazir A.F. Rediger ogohlantirishlariga quloq solib, boshqaruvni an'anaviy shaklda olib bordi. 1906-yil mart oyi boshida u Pomir rahbarlarini chegaradagi vaziyatni hal qilish masalasida qabul qiladi va ularning ba'zilariga mukofotlar topshiradi. (Shug'non bekligi Vaxan volosti boshlig'i Amanbek)[7]. Lekin D.I. Subbotich tez orada an'anaviy

boshqaruvdan liberal siyosatga o'ta boshladi, jumladan u o'lka inqilobchilariga qarshi qatag'onga qat'iyon yo'l qo'yadi, inqilobiy harakatning asosiy boshliqlari bilan muzokaralar olib bora boshladi, politsiya rejimini yumshatdi, hibsga olinganlarni qamoqdan ozod qildi, tinch aholiga qarshi qo'shin ishlatishdan bosh tortdi, hukumatning talablarini qondirishga harakat qildi[7]. Bunday yumshoq siyosat markaziy hukumatda ham, mahalliy reaksiyon fikrdagi harbiy va fuqarolik boshqaruvida ham keskin norozilikka sabab bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori D.I. Subbotichning liberal siyosatni harbiy vazir A.F. Redigerga yozgan maktubida ham ko'rish mumkin. Bu xatda u shunday yozadi: "Biz qirq yildan beri Turkistonga egalik qilmoqdami va shu paytgacha kamida bir necha mahalliy tillarni biladigan ma'muriyat amaldorlari barmoq bilan sanarli. Sud departamentida esa, ularning soni bundan ham kamroq". Ushbu holatni u "halokatli" va "o'ta g'ayritabiiy" deb atab, "xodimlarni mahalliy tillarni o'rganishga undash mumkin bo'lgan" choralarni ko'rib chiqish uchun komissiya tuzishga buyruq berdi[9. – C.2]. Shuningdek, general-gubernator "Туркестанские ведомости" sahifalarida ushbu masala bo'yicha jamoatchilik muhokamasini boshladi. Biroq, uning barcha harakatlari natijasiz edi.

D.I. Subbotichning liberal siyosati bir qator mahalliy musulmonlarning davriy nashrlarini avtorizatsiya (ma'lum shaxsga yoki shaxslar guruhiga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini berish) qilishda ham namoyon bo'ldi, unda mahalliy aholida musulmonlar dunyoqarashining siyosiy-lashuvi va muayyan ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini aks ettirish alomatlarini aniqlash mumkin. Bunga misol qilib, Turkistondagi birinchi jadid gazetasi hisoblangan Taraqqiy ("Progress") gazetasini 1906-yil 14-iyun kuni Toshkentda nashr etilishini aytish mumkin. General-gubernator D.I.Subbotich davrida o'lka musulmonlari ham o'zini ancha erkin his qilishgan va biroz tinchlanishgan[2].

Senator K.K. Palen D.I. Subbotichni o'lkada ro'y berayotgan "siyosiy voqealarni tan olmaslik"da ayblagan. Bunday ayblovning asosli ekanligini bir qator faktlar ham tasdiqlaydi: 1906-yilning bahor va yoz oylarida o'lkada qatag'onning susaytirilishi, turli siyosiy tashkilotlar faoliyatining jonlanishi, jumladan, 1906-yil fevral va sentabrda RSDRP (Российская социал-демократическая рабочая партия)ning ikkita Turkiston konferensiyasi o'tkazilishi yoki bo'lmasam, 1906-yil iyulda Turkiston temir yo'llari delegatlarining syezdi o'tkazilishi hamda kasaba uyushmalarining ancha keng tarmog'i tuzilishi, "Русской Туркестан" va "Самарканд" gazetalarining Toshkent va Samarqanddagi sotsial-demokratik guruhlarning tomonidan oshkora matbuot organiga aylantirilishi ham ko'rish mumkin.

D.I. Subbotich o'z faoliyati davomida Buxoro va Xiva xonliklari hududidagi rus savdogarlaridan olinadigan soliqlar masalasiga ham e'tibor qaratgan. Xususan, rus savdogarlari qonuniy zakot, bundan tashqari aminana (ishlab chiqaruvchidan ulgurji sotuvchi tomonidan tovar sotib olish uchun soliq)[1] va bozor og'irliklaridan foydalanliklari uchun soliqlar to'lashgan. General-gubernator D.I. Subbotich esa, ushbu soliqlarni doimiy Rossiya tijorat soliqlari bilan almashtirishni taklif qildi. Keyinchalik D.I. Subbotichning taklifi bilan, senator K.K.Palen o'lkada otkazgan taftish komissiyasi xulosalarida Rossiya savdosidan olinadigan zakot va boshqa barcha soliqlarni bekor qilishni va butun xonlik bo'ylab Rossiyaning tijorat faoliyatida ishlatiladigan soliqlarga almashtirishni taklif qiladi[1].

D.I. Subbotich o'ziga ishonib topshirilgan hududdagi ishlar bilan yaqindan tanishar ekan, Buxoro amirligidagi hamon o'rta asr zindonlarida mahbuslar butunlay chidab bo'lmas, g'ayriinsoniy sharoitlarda saqlanayotganligi haqida ma'lumot oladi. Bu haqida daliliy ma'lumotlarlar to'plashga qaror qilgan. Shu sababdan u Buxoro amirligiga "Turkiston yangiliklari" gazetasi bosh muharriri N.G. Mallitskiy va

politsiya pristavi Grigoryevdan iborat o'ziga xos tekshiruv yuboradi. Tanlov tasodifiy emas edi, ikkalasi ham forp-tojik tilini yaxshi bilgan va mahalliy urf-odatlarini chuqur bilishi bilan ajralib turardi. Turkiston general-gubernatori D.I. Subbotich jo'natgan "tekshiruvchilar" zindonda saqlanayotgan mahbuslar hayoti bilan yaqindan tanishadi, ularning nima sababdan qamalganligi bilan qiziqadi. N.G.Mallitskiyning bu xatti-harakatlari Buxoro amiri tomonidan o'zaro tuzilgan "Do'stlik shartnomasi" shartlari buzilishi sifatida talqin qilindi va ulardan amirlik hududini tark etish talab qiladi. Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxon Rossiya imperatori Nikolay II ga telegramma yo'lladi. Tez orada Buxoro amiri Sankt-Peterburgga ketdi va yuqoridagi holatdan Rossiya podshosining jahli chiqdi[7]. Ushbu voqea Rossiya imperatorining Turkiston general-gubernatori D.I. Subbotichga nisbatan ishonchi kamayishiga sabab bo'ldi.

1906-yil avgust oyi boshida Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni sifatida general-leytenant D.I. Subbotich buyrug'i bilan zobitlardan askarlar bilan til topishib, armiyani xalqning siyosiy hayotida ishtirok etishdan himoya qilishni talab qildi. Ustiga ustak, Peterburgdan kelgan "hech ikkilanmasdan, ayab o'tirmasdan qat'iy ish ko'rilsin" degan ko'rsatmalarga zid o'laroq, D.I. Subbotich Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarida jiddiy g'alayonlarga yo'l qo'yadi, xususan, Toshkent, Ashxobod va Krasnovodsk garnizonida tahdidlar bo'lib o'tadi (1906-yil yozida)[3].

Rossiya imperiyasi harbiy vakillari doirasida ancha qattiqqo'l va mashhur bo'lgan general-adyutant K.K. Maksimovich Turkistonga D.I.Subbotichga yordamgaga yuboriladi, u aksilinqilobiy faoliyati yetarli emas deb tan olinganlarni, hatto bu sohada o'rnak bo'lgulik bo'lib chiqqan generallar V.V.Saxarov, G.Y.Matsievskiy va boshqalarni lavozimidan olib tashlaydi. Inqilobiy voqealar qatnashchilarini ta'qib qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi qadamlar qo'yiladi[3].

Rossiya imperiyasining barcha general-gubernatorlari, jumladan Turkiston general-gubernatorlari ham imperiya hukumatiga sodiq xizmatlarini namoyon etishga harakat qilgan. Shu sababli ular imperator tomonidan ko'plab

mukofotlar va imtiyozlar bilan rag'batlantirilgan. Ammo D.I. Subbotich bunday bo'lib chiqmadi, Nikolay II uni tayinlashda hammasini hisobga olmagan ekan. Aftidan, u qandaydir burjua partiyasi qarashlarini ma'qul ko'rgan. Bu haqida uning lavozimini egallayotganidagi "isyonkorona" nutqi ham dalolat beradi. Unda: "Rossiya davlati fuqarosining qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'z siyosiy e'tiqodidan foydalanish huquqini e'tirof etaman. Men har kimning o'z qarashlarini targ'ib qilish huquqini tan olaman. Bu o'z qarashlarimdan kelib chiqadi. Nega o'z tamoyil foydasiga aql bilan, mantiq bilan, asoslarning ishonarliligi bilan kurashilmasligi kerak"[3] – deb aytib o'tadi.

D.I. Subbotichning olib borgan siyosati natijasida, uning Turkiston general-gubernatorinigi iste'fosi aniq bo'lib qoldi. Shubhasiz, D.I. Subbotich buni tushundi va hukumat qarorini kutmasdan, o'zi ariza yozishga qaror qildi. Turkistonliklar liberal general-gubernatorning iste'foga chiqishiga turlicha munosabat bildirishdi.

D.I. Subbotichdan keyin Turkiston general-gubernatori lavozimiga 1892-yilgi Toshkent qo'zg'olonining eng shafqatsiz bostiruvchilaridan biri N.I.Grodekov tayinlandi. N.I. Grodekov D.I. Subbotich bilan bog'liq "tarix"dan keyin imperator oldida Turkiston ma'muriyatining "yaxshi nomi"ni tikladi

Xulosa va takliflar. XX asr boshlariga kelib, Rossiya imperiyasida inqilobiy vaziyat yuzaga keldi hamda bu holat Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. D.I.Subbotich Turkiston general-gubernatori sifatida hokimiyatda uzoq vaqt turmagan (1906-yil yanvardan-sentabrgacha) bo'lsa-da, lekin aynan ushbu davr oralig'ida ahamiyati jihatidan butun mamlakat uchun ham, Turkiston o'lkasi uchun ham muhim voqealar sodir bo'ldi. Shuningdek, Turkiston general-gubernatori Dean Ivanovich Subbotich o'zining liberal qarashlaridan kelib chiqib, o'lka hayotida o'zgarishlar qilishga uringan dastlabki va so'nggi general-gubernatoridir. D.I.Subbotichga qadar va undan keyin ham Turkistondagi mustamlaka ma'muriyati orasida liberalizmda ayblanganlar bo'lmagan.

ADABIYOTLAR

1. Seymour B. Russia's Protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva, 1865-1924. 2004. – London, Routledge Curzon, – P. 137.
2. Tomohiko U. Asiatic Russia Imperial power in regional and international contexts. – London, Routledge, 2012. – P. 242.
3. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – Б. 196.
4. РГИА. фонд-276. опис-2., дело-36, лист-15.
5. Редигер А.Ф. История моей жизни. Воспоминания военного министра. II томах. / Под общей редакцией. Гаркуши И.О и Золотарева В.А. – Москва: Канон-пресс; Кучково поле, 1999. – Федеральная архивная служба России, Российский государственный военно-исторический архив, 1999. / <http://militera.lib.ru/memo/russian/rediger/08.html>
6. ЎЗРМА, И-1-фонд, 35-рўйхат, 40-йиғма жилд, 414-варак.
7. Фетисов В. "Генерал-ракета" Деан Суботич. Глава девятая // <https://nuz.uz/kolumnisty/1200365-general-raketa-dean-subotich-glava-devyataya.html>.
8. Шушкова М.Э. Организация управления Туркестаном в начале XX века. – Москва, РГГУ, 2015, – С. 194.
9. Ягелло Н.Л. Сборник материалов по вопросу об изучении туземных языков служащими по военно-народному управлению Туркестанского края. – Ташкент, 1906. – С. 2.



Abdilatip SARIMSOKOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.n.
E-mail: abdulsarimsokov@gmail.com

NamDU dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) B. R. Xalmuratov taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ TAQVIMIDA HAFTA

Annotatsiya

Ushbu maqolada hafta hisobining vujudga kelishi, hafta kunlarini samoviy jismlar bilan bog'lanishi, hafta kunlari bilan bog'liq qarashlarning o'zbek xalqi taqvimiy marosimlarida tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Taqvim, yil hisobi, tun-kun, hafta, sayyoralar, odat.

НЕДЕЛЯ В КАЛЕНДАРЕМ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Аннотация

В данной статье приведены сведения о создании недельного исчисления, связи дней недели с небесными светилами, роли и значении представлений, связанных с днями недели, в календарных обрядах узбекского народа.

Ключевые слова: Календарь, исчисление года, день и ночь, неделя, планеты, обычай.

WEEK IN THE CALENDAR OF THE UZBEK PEOPLE

Annotation

This article provides information about the creation of the weekly calculation, the connection of the days of the week with heavenly bodies, the role and importance of views related to the days of the week in the calendar ceremonies of the Uzbek people.

Key words: Calendar, reckoning of the year, day and night, week, planets, habit.

Kirish. Kishilik jamiyatining turmush tarzi, xo'jalik an'analarda vaqt doimo muhim ahamiyat kasb etgan. Inson ongining rivojlanishi, dunyoqarashi va tabiiy bilimlarining o'sishi natijasida yer yuzidagi barcha xalqlarda o'ziga xos oy, quyosh, burjlar, hayvonlar va fenologik kuzatishlar bilan bog'liq yil taqvimlari vujudga kelgan (1). Jumladan, o'zbek xalq taqvimi ham ajdodlarimizning samoviy hamda tabiat hodisalarini uzoq vaqt mobaynida muttasil kuzatib borishlari va katta hayotiy tajribalari natijasida vujudga kelgan. Bobolarimizning yil fasllarini, o'lkamiz tabiiy iqlimini yaxshi bilishlari natijasida Quyosh, Oy, Muchal, To'g'al, Dehqon va Chorva hisobi hamda qushlar bilan bog'liq xalq taqvimlari yaratilgan (2).

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada xronologik, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, semantik-semiotik nazariya, kuzatish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Insoniyat sivilizatsiyasi ibtidosida "tun va kun", "kichik hafta", "katta hafta", iplarni tugib yoki yog'och va kaltaklarni o'yib, belgi qo'yib hisoblash, keyinchalik esa qadimgi xalqlarning samo yoritgichlarini kuzatishlari natijasida osmon jismlari bilan bog'liq bo'lgan vaqt hisoblari ham yaratilgan. Dehqonlar va chorvadorlar har joy va har yerda (dala) ishlari va boshqalarni boshlashda ularga mos vaqtlarni bilganlar. Tepasida osmon turgan va osmondan boshqa narsa (tepasini) qoplamaganligini, yoritgichlarning doimo bir tartibda chiqishi va botishini ko'rib, kuzatib turgan kishi o'z ishlarining boshlanishi vaqtlarini bilishni, albatta, yoritgichlarga bog'laganlar (3).

Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida yashagan xaldeylar har bir sayyoraning o'z kuni bo'ladi, deb faraz qilganlar va yangicha kun hisobi – haftani yaratganlar. Bu xil vaqt hisobi xaldeylardan ossuriyaliklarga keyinchalik bobillarga, ulardan rimliklarga va yevropaliklarga tarqalgan.

Bobilda yashagan xaldeylar yunon ilohlari – Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturnning nomlariga Quyosh va Oyni ham qo'shib, sayyoralar sonini yettitaga yetkazganlar hamda "7" raqamini muqaddas deb e'lon qilganlar.

Ana shunday qilib, muqaddaslashtirilgan yetti raqamidan vaqt o'lchovi sifatida – yetti kunlik hafta hisobini o'ylab topilgan. yetti kunlik hafta hisobining vujudga kelishiga Oy fazalarining almashinuvi ham sabab bo'lgan (4).

Mazkur hafta kunlari qadimdan ma'lum bir samo yoritgichlari bilan bog'langan. Jumladan, yakshanba – Shams (Quyosh), dushanba – Qamar (Oy), seshanba – Mirrix (Mars), chorshanba – Atorud (Merkuriy), payshanba – Mushtariy (Yupiter), juma – Zuhra (Venera), shanba – Zuhal (Saturn) kunlari hisoblangan (5).

Ushbu sayyoralar o'ziga xos ramzlarga ega bo'lgan. Masalan, Quyosh – kuch-g'ayrat, Oy – dilbarlik, Mirrix – jangu jadal, Atorud – aql-zakovat, donolik, Mushtariy – baxt, Zuhra – sevgi, muhabbat va sadoqat, Zuhal esa vaqt, dehqonchilik va hosildorlik homiysi bo'lgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining tasavvurlariga ko'ra hafta kunlari yuqorida ko'rsatilgan sayyoralarining biri hukmi ostida bo'lib, ular to'g'risida turlicha tasavvurlar ham mavjud. O'zbeklar amalda qo'llovchi hafta kunlarining nomi fors (qisman arab) tilidan qabul qilingan. Chunonchi, yakshanba – haftaning birinchi kuni ("yak" – bir), birinchi sayyora Quyosh hukmi ostida bo'lgan, bu kunning mijozi issiq va quruq bo'lib, yakshanba kuni boshlanadigan yil turli hodisalarga boy bo'ladi.

